

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.71 (336.1)

JUMANOV O'TKIRBEK MAHMUD O'G'LI

TIJORAT BANKI FAOLIYATINING SAMARADORLIGI VA UNING TAHLILI

Mutaxassislik: 5A230702-"Bank hisobi va audit"

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar

i.f.d., prof. A.Omonov

TOSHKENT-2018

**Dissertatsiya Toshkent Moliya Insituti “Bank hisobi va audit” kafedrasida
bajarilgan**

Ilmiy rahbar

i.f.d, prof. A.Omonov

Kafedra mudiri

i.f.n, dots. Umarov Z.

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n, dots. Ortiqov U.

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin xalqimiz oldida juda muhim masalan, ya’ni o‘z farovon istiqbolini yaratishda va rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetib borishda iqtisodiy rivojlanishning qaysi yo‘nalishini tanlash va ushbu yo‘nalishni O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbiq etish masalasi yuzaga keldi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotini joriy qilishda davlatimiz tomonidan bir qancha iqtisodiy isloxotlar amalga oshirildi. Bularning najasi o‘laroq, iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bo‘lgan bank tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bu davrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risidagi”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” Qonunlarini va respublikamizda bank tizimini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha boshqa bir qancha me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bundan tashqari respublikamiz tijorat banklari 1996 yildan boshlab o‘zlarining buxgalteriya hisobini xalqaro bank tizimida joriy qilingan hisobvaraqlar rejasi asosida amalga oshirib kelmoqda. Joriy vaqtga kelib ushbu hujjatlar qayta ko‘rib chiqilib takomillashtirilmoqda.

Bugungi kunda ba’zi davlatlarda iqtisodiy inqiroz ta’siri sezilib turgan bir paytda bank samaradorligini o‘lchash va uni baholash bank sektori faoliyatida asosiy dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro moliya bozorlarini globalizatsiyasi va bank sektorida raqobatning oshishi moliya institutlarini samaradorligi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Tijorat banklarini samaradorligini hisoblash bankning kelgusi faoliyat yo‘nalishini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarbliligi ham mana shu jihati bilan belgilab beriladi.

Ayni vaqtga kelib O‘zbekistonda ham bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan siyosat izchillik bilan davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»

PF-4947-sonli Farmonida keltirilganidek, bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning rentabelligini oshirish va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.¹

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholining yirik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, korporativ mijozlar va boshqa barcha tashkilotlar tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanadilar. Iqtisodiy tamoyil va me'yoriy qonunchilikga amal qilgan holda faoliyat ko'rsatayotgan bank tizimi iqtisodiyotning rivojlanishini va milliy valyutaning barqarorlashuvini ta'minlaydi. Albatta, bank samaradorligi va iqtisodiy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliya institutiga aylanadi. Shuning uchun bank samaradorligini oshirish har qanday ijtimoiy rivojlanish darajasida har bir davlatda muhim vazifa hisoblanadi. Moliyaviy institut sifatida bank faoliyati likvidlilik holatini ta'minlab, risklarni kamaytirib, qo'yilma egalari va aksiyadorlarning huquqlarini saqlagan holda yuqori daromad olishga qaratilgan faoliyatdir. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish bosqichida bank faoliyati samaradorligi masalasi o'zgacha ma'no kasb etadi. Ushbu masalalarning aksariyat qismi banklarning barqaror resurs bazasiga ega bo'lishi, daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirgan holda bank foydasini oshirish hamda bu orqali samaradorlikni oshirish orqali yechimga bo'lish mumkin. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi yuqoridagi dolzarb masalalarning hal qilinishi bo'yicha amaliy takliflar berishga qaratilgan.

Mavzuning obyekti. Mavzuning obyekti tijorat banklarining barcha hisoblarini o'zida mujassamlashtirgan va tashqi auditdan o'tkazilgan yillik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947 sonli Farmoni

hisobotlari va ulardagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanuvchi bank faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Mavzuning predmeti. Dissertatsiya ishining predmeti sifatida tijorat banklarining samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq barcha iqtisodiy munosabatlar ko'riladi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi tijorat banklari faoliyatini samaradorligini va uning tahlilini o'rgangan holda, banklarda samaradorlik tahlillarini takomillashtirish va uni oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olingan:

- tijorat banki samaradorligi mohiyati va uni aniqlash mezonlarini o'rganish;
- bank samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni ta'minlash ahamiyatini tushunish;
- bank **samaradorligini** aniqlash va baholash bo'yicha xoijiy tajribalarni o'rganish;
- mulkchilik shakllari bo'yciha tijorat banklari faoliyatini joriy samaradorligini aniqlash va uni tahlil qilish;
- tijorat banki faoliyati samaradorligi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo'llarini tadqiq qilish;
- respublikamizda bank faoliyati samaradorlik bo'yicha amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat bo'ldi:

- tijorat banklari faoliyatini samaradorligini aniqlashda jamlanma ko'rsatkichlar tahlilini olib borish taklifi kiritildi;
- tijorat banklari faoliyatini samaradorligini uning mulkchilik shakli bo'yicha tahlil qilish amaliyoti kiritildi;
- respublikada xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar faoliyatini rivojlantirish zaruriyatini qo'yib uni ilmiy isboti keltirildi;

- tijorat bankining samaradorligini hisoblashda hisobga olinishi lozim boʻlgan yangi omillar guruhi keltirildi.

Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotimizning asosiy masalasi bu tijorat banklarini samaradorlik koʻrsatkichlarini oshirish bilan bogʻliq. Ayni vaqtda jahon miqyosida globalizatsiya jarayonlarini tezlashishi iqtisodiy integratsiyalashuvlarning kuchayishi va bank sohasida raqobat muhitini ortishi banklar faoliyatida xar bir elementni qaytadan koʻrib chiqqan holda takomillashtirishga majbur qilmoqda. Birinchi navbatda banklarning samaradorligini hisoblashni xorij amaliyotidan foydalanish uchun eng avvalo bank moliyaviy natijalarini xalqaro standartlar asosida koʻrib chiqmogʻimiz lozim.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi. Tijorat banklari samaradorligini oʻrganish davomida bevosita bank moliyaviy natijalari bilan ishlashga toʻgʻri kelganligi sababli ushbu magistrlik dissertatsiyamizda asosiy foydalaniladigan usulimiz bu empirik usul hisoblanadi. Shuningdek induktiv va deduktiv usullardan ham keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalar va ular boʻyicha shakllantirilgan takliflarni darslik va oʻquv qoʻllanmalarga kiritib kelgusi yillarda kollej oʻquvchilari, bakalavr va magistrlar uchun kerakli maʼlumot sifatida taqdim qilish nazarda tutilgan. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan ilmiy takliflarni tijorat banklari faoliyatini samaradorligini aniqlash va uni oshirishda qoʻllash tadqiqot ishining amaliy ahamiyatini ifodalaydi.

Tadqiqot boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tijorat banklarining samaradorligini aniqlash va uni oshirishga oid masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar – A.Smit, Samuelson, Kapiga, Rose, Classiens, Kempbell R.Makkonnell, Stenli A.D.Sheremet, Lavrushin O.I, E.V.Negashev, A.V.Tyutyunin, V.E.Cherkaev oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan Vaxabov A.V,

Qoraliev T.M, I.T.Abdukarimov, Abdullaeva. SH.Z, A.Omonov, M.M.Pardaev va boshqalar keng o'rganilib, yoritib berilgan.²

Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Xalqaro Hisob-Kitob Banki va Jahon banki mutaxasislari ham o'zlarining bir qancha ilmiy tadqiqot natijalarini berishgan. Bunda ular banklarning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil metodlarini kengroq yoritishga va turli banklarning bu yo'nalishdagi afzallik va yutuqli tomonlarini o'rgangan holda o'zlarining tavsiyalarini berishga harakat qilishgan.³

Magistrlik ishining tuzilishi va tarkibi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi yoritib o'tilgan va tadqiqot ishining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida tijorat banklarining samaradorligini aniqlashning nazariy asoslari, usullari va xorijiy amaliyot yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida mulkchilik shakli bo'yicha tijorat banklarining samaradorlik ko'rsatkichlari joriy holati, unga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan likvidlik va aktivlar tahlili olib borilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobida tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari hamda bank samaradorligini oshirishning yangi yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining xulosa qismida mavzuni o'rganish davomida o'rganishlardan kelib chiqqan holda bildirilgan xulosalar va takliflar berilgan.

² "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004,. Черкаев В.Е. "Финансовый анализ в коммерческом банке", М. Инфра-М. 1995 г. Pardayev M.K Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Sam.; Zarafshon, 2008 y., Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" T.TMI., 2005 y., Adam Smith "An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations". 1776 y.. University of Chicago, ² Stepien. Polsha banklarida samaradorlik va konsolidatsiya. Varshava.² Omonov A. Bank kapitali yetarililigini ta'minlashda xatarli bank aktivlari ahamiyati. //Bozor, Pul va Kredit. №6 2004. – 14-15

³ World Bank Group "Financial structure and Bank profitability". 2009 POLICY RESEARCH WORKING PAPER 2430, E. Kohlscheen, A. Murcia and J. Contreras (Bank for international settlements) Determinants of bank profitability in emerging markets.

I BOB. TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI ANIQLASH MEZONLARI VA UNI TA'MINLASH AHAMIYATI

1.1 Tijorat banki samaradorligi mohiyati va unin aniqlash mezonlari

So'ngi o'n yilliklarda moliya institutlari samaradorligi eng ko'p va keng doirada o'rganildi. Moliya institutlari uchun samaradorlik bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni qoplashga yo'naltirilgan kapital zaxiralar doirasida ehtiyotkorlik ya'ni xaridorlar uchun yaxshiroq narx va xizmatlar hamda fondlarga yo'naltirilgan takomillashtirilgan daromadlarni ifodalaydi.

Samaradorlik tahlili garchi XIX -XX asrga qadar kam olib borilgan bo'lsada, ayni vaqtda bu tadqiqotchilar qiziqishining markazida turibdi. Tijorat banklarining samaradorligini hisoblash bankning kelgusi faoliyat yo'nalishini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarbliligi ham mana shu jihati bilan ajralib turadi.

Samaradorlik ko'pincha unumdorlik bilan aniqlanadi. Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli mashxur kitobida mehnat ishchi malakasi va unumdorlikda eng katta rivojlanishlarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.⁴ Smit fikricha ish unumdorligini oshishi bu ish vaqtini tejash va bir kishi qiladigan mehnatni qisqartiruvchi hamda unga imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi ko'plab mehanizmlar kashf qilinishiga erishishdir.

Biz xalqaro nazariyalarni o'rganish davomida Polshalik iqtisodchi olimlarning nazariyalaridan keng foydalandik. Chunki ularning olib borgan tadqiqotlari va yakunda yuzaga chiqqan samaradorlik nazariyalari haqiqatdan ham bank faoliyati samaradorligini tahlilini olib borishda muhim rol tutadi. Biz quyida ulardan ba'zilarining fikr va mulohazalarini keltirib o'tamiz. Jumladan Stepien nazariyasiga ko'ra banklarda samaradorlikning turli xildagi ta'riflari mavjud. "Ushbu atamaga biz turli burchaklardan turlicha yondashishimiz mumkin.

⁴ Adam Smith "An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations". 1776 y.. University of Chicago,

Samaradorlikni aniqlash asosida samaradorlik alohida maqsadlarda foydalanishning ham me'yorini belgilaydi. Samaradorlik bu iqtisodiy va tashkiliy nazariyalar jihatidan tahlil qilinadi.”⁵

U samaradorlik va ta'sirchanlik haqida fikr yuritib ularni o'zaro solishtiradi va ularni quyidagicha ta'rif beradi: “Samaradorlik bu ba'zi narsalarni to'g'ri qilish bo'lsa, tasirchanlik esa to'g'ri narsalarni qilishdir”. Samaradorlikning asl iqtisodiy tushunchasi uning umumiy chiqib ketuvchi tovarlar bilan unga muvofiq kiruvchi resurslarni o'zaro nisbatidir. Samaradorlik ushbu nisbat bilan proporsionaldir. Ushbu nisbat qancha yuqori bo'lsa samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

Umuman olganda Polsha iqtisodiyot maktabi samaradorlikni operatsion xarajatlarni oshishi darajasi ko'tarilish bosqichida tushum va daromadlar darajasini ushlash uchun bank boshqaruvchilari va ularning jamoasini qobiliyatini ko'rsatib turuvchi ko'rsatkich sifatida ta'riflaydi.

Shuningdek Iveta Repkova bank samaradorligini quyidagi ehtimoliy ko'rinishlarini keltirib o'tgan:

- ma'lum bir vaqt davomida tashkilot maqsadlari, uning resurslari, ichki va tashqi muhiti hamda biznes muhiti bilan shug'ullanuvchi tashkiliy samaradorlik;
- bank hisobotlarida keltirilgan moliyaviy ko'rsatkichlarni tekshiruvchi moliyaviy samaradorlik;
- xarajatlar chegarasini aniqlashtiruvchi xarajat samaradorlik.⁶

Rogovski esa bank samaradorligini o'lchash bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ikkita alternative(muqobil) yondashuvlarni taqdim etadi:

- texnik samaradorlik tahlillari;
- samaradorlik ko'lami va miqyosi tahlillari.⁷

⁵ Stepień. Polsha banklarida samaradorlik va konsolidatsiya. Varshava. 128-136 bet.

⁶ <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567114003839> Iveta Repkova “Efficiency of Czech banking sector employing the DEA window analysis approach”. Science Direct.

⁷ Rogovski G. “Bank samaradorligini tahlil metodlari” Bank va Kredit. 11 son.

Bank samaradorligini baholashda turli xil usullar keltirilgan. Ushbu usullar turli xil klassifikatsiya qilinadi. Masalan:

- balans analiziga asoslangan moliyaviy ko'rsatkichlarni ananaviy metodlari;
- ishlab chiqarish funksiyasi bilimlariga asoslangan parametrlil metodlar;
- va bu kabi bilimlarni talab qilmaydigan no-parametrlil metodlar.

Birinchi metod bank balans ko'rsatkichlariga asoslangan metod bank amaliyotida monopoliyaga ega. Ya'ni bu usul banklar o'rtasida eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Ikkinchi usulimiz parametrlil usul uzoq muddat davomidagi ma'lumotlar hamda xarajatlar va ularning ijrosini amaliy holati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun o'tkaziladigan metod hisoblanadi. Uchinchi usul bu no-parametr metodi bo'lib, u ma'lumotlar har taraflama tahlili ham deb ataladi. Asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi.

Zuzana Svitalkova fikricha samaradorlik tahlillari bankning amaliy holatini baholash uchun juda muhim hisoblanadi.⁸ Moliyaviy ko'rsatkichlar muhim analitik vosita hisoblanib, bank egalari va mijozlari undan banklarning holatini baholash va solishtirishda foydalanishadi. Aynan mana shuning uchun banklar mijozlarda ijobiy ta'ssurot qoldirish uchun ananaviy ko'rsatkichlarga katta e'tibor qaratishadi. Ushbu ko'rsatkichlar to'rt guruhga bo'linadi:

- rentabellik darajasi;
- foyda darajasi;
- hisoblangan natija darajasi;
- ishchilar samaradorlik darajasi.

Ushbu samaradorlik ko'rsatkichlari turli jihatlarga ko'ra tahlil qilinishi mumkin. Masalan birgina vaqt tomonidan olib qarasak, ma'lum muddat davomida samaradorlikni oshgan yoki pasayganligini baholashimiz mumkin.

⁸ <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S221256711400389X> Zuzana Svitalkova "Comparison and evaluation of bank efficiency in selected countries in EU". Science Direct 2014 y

Ko'rsatkichlarning birinchi guruhi bu rentabellik darajasi hisoblanadi. Ularni quyidagicha keltirish mumkin:

- ROA- aktivlar qaytimi. Bunda moliyaviy natijalar va bank aktivlari nisbati ko'riladi;
- ROE-kapital qaytimi. Bunda moliyaviy natijalar va bankning o'z mablag'lariga nisbati olinadi;
- ROS-savdo qaytimi. Bunda moliyaviy natijalarning bank daromadlariga nisbati olinadi;
- C/I-xarajat darajasi. Bunda xarajatlarni tushumlarga nisbati olinadi.

ROA, ROE va ROS berilgan muddat ichida bank holatini samaradorligini baholashda moliyaviy tahlillarda ko'p foydalaniladigan usul hisoblanadi.

Samaradorlik ko'rsatkichlarining yana bir guruhi foyda darajasidir. Ushbu guruhning ikkita asosiy darajasi foyda marjiniga asoslangandir:

- sof foyda – foydani aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi;
- foyda spredi- aktivlar bo'yicha olinadiga foyda bilan majburiyatlar bo'yicha to'lanadigan xarajatlar orasidagi farq.

Yuqoridagi samaradorlik ko'rsatkichlari ayni paytda xalqaro standartlar asosidagi ko'rsatkichlar hisoblanib, ulardan Yevropa, AQSH va Sharqiy Osiyoning eng rivojlangan banklari o'z faoliyatlarida foydalanib kelishmoqda. Ayniqsa, Yevropaning eng rivojlangan banklari bu ko'rsatkichlar tizimini yaxshi yo'lga qo'yishgan. Ushbu ko'rsatkichlar tizimini asosiy afzallik jihati shuki u kompleks hisoblanadi. Kompleks tarzda hisoblanishi esa bank faoliyatini har bir jihatini tahlil qilib undagi o'zgarishlarni aniq kuzatib borish imkonini beradi.

Ma'lumki O'zbekiston sharoitida tijorat banklari yuqoridagi ko'rsatkichlardan kompleks tarzda foydalanishmaydi. Ba'zi ko'rsatkichlar hisoblanmaydi. Bunga misol qilib esa xodimlar samaradorlik ko'rsatkichlarini olishimiz mumkin. Tijorat banklarida xodimlar foydalilik darajasi hisoblanishi, ularning o'z ishlaridagi unumdorlik darajasini oshirishga o'ziga xos turtki vazifasini o'tab beradi. Fikrimizcha yuqoridagi ko'rsatkichlarni tijorat banklarida

kompleks tarzda hisoblab uni aholining keng qismiga ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqatish lozim. Bu harakatlar uning shaffofligini ta'minlab, bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning tashqi foydalanuvchilarini o'ziga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan xalq bilan bilan muloqot va inson manfaatlarini har qanday narsadan ustun ekanligini, aholi uchun idoralarning ishlashini shaffoflashtirish lozimligini ta'kidlab kelmoqdalar. Bu esa bank sohasida bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlardan tashqari barcha ma'lumotlar ochiqligi va bank faoliyati shaffofligini ta'minlashni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklari oldiga qo'yilgan vazifalardan hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qamrab olish metodi bank faoliyat yo'nalish modelini shakllantirib beradi va faoliyatning kirim va chiqimlarini aniqlaydi. Bank yo'nalish modelida foydalaniladigan bir nechta yondashuvlar mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- ishlab chiqarish yondashuvi
- vositachilik yondashuvi
- zamonaviy yondashuv

Ishlab chiqarish yondashuvida bank faoliyati depozit hisobraqamlar egalari va qarzдорlar uchun xizmatlar xizmat ko'rsatuvchi sifatida qaraladi. Ammo ushbu yondashuv muammosi shundaki mahsulotlar hajmini baholash yo'lidir. Ya'ni mahsulotlar hajmini taqdim etishning eng qulay yo'li qaysi biri ekanligidir.

Vositachilik yondashuvi ishlab chiqarish yondashuviga yordamchi yondashuv hisoblanadi. Uning farqi esa bank faoliyatining spesifikatsiyasi yo'llaridadir. Ushbu model bank depozitdan kreditlarga o'tkazish jarayonlarida asosiy rolini ta'kidlaydi.

Shuningdek, banklar kapitali va depozitlarining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi ishtirokini faollashtirishga, bank aktivlari va kredit qo'yilmalari hajmining ko'payishiga ijobiy ta'sir qiladi. Respublikamiz bank amaliyotida aktiv

operatsiyalar tahlilidan keng foydalanish mijozlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, banklarning kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirishga, kredit riskini ma'lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlarini oshishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan tashqari bank samaradorligini aniqlash va uni shaffofligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki bank faoliyati moliyaviy tahlil ma'lumotlaridan foydalanuvchilar va ularning talablarini, ma'lumotlarni ishlatish hamda baholash turlariga qarab quyidagicha guruhlashtirish mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval

Bankning moliyaviy barqarorligini baholash ma'lumotlaridan foydalanuvchilar, maqsadi va turlari⁹

Baholash ma'lumotlaridan foydalanuvchilar	Talab etiladigan ma'lumotlar	Ma'lumotni qo'llash maqsadi	Baholash turi
1.Bank kengashi va boshqaruvi.	Barcha ma'lumot	Bank aktivi, passivi spreadni boshqarish	Batafsil
2.Markaziy bank	Barcha ma'lumot	Bank nazoratini amalga oshirish	Batafsil
3.Soliq organlari.	Daromad, foyda va soliqlarning hisoblanishi.	Soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini nazorat qilish.	Ixtisoslash-tirilgan
4.Hokimiyat organlari va jamoatchilik.	Bankning mahalliy iqtisodiyotdagi rolini aniqlash.	Tegishli tavsiyalar tayyorlash.	Ixtisoslash-tirilgan.
5.Bank mulkdorlari: 1. Bank ta'sisчилari 2. Bank aksiyadorlari	Foydalilik, likvidlilik, aktivlar sifati.	Bank aksiyalarini sotib olish yoki sotish.	Tezkor.
6.Bank mijozlari: 1. Bank omonatchilari; 2. Bank hisobvarag'i egalari; 3. Bank kreditorlari;	Kapitalning etarliligi, aktivlar sifati.	Omonat qo'yish yoki qaytib olish, hisobvaraq ochish yoki boshqa bankkako'chirish, kredit berish yoki bermaslik.	Tezkor.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki bugungi kunda tijorat banklari hozirgi iqtisodiy tizimda rejali iqtisodiyotdan farqli o'laroq, bankning moliyaviy holati va faoliyatining natijadorligi bo'yicha nafaqat yuqori organlar balki o'zlarining aksiyadorlari, omonatchilari va kreditorlari oldida o'z majburiyatlari bo'yicha bevosita javobgardirlar.

⁹ Mahmudaliyeva Y.A. "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash". Avtoreferat, 2001 y.

Bank kengashi va boshqaruvi bank barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda va raqobat sharoitida yutib chiqish hamda raqobatga bardosh berishda, qolaversa bankni samarali boshqarishda barcha tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishi va bank faoliyati bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilishi, bankning joriy holati va to'lovga layoqatliligi va joriy likvidligini boshqarish, aktivlar va passivlarni boshqarishda ma'lumotlardan keng foydalanishi lozim.

1.2. Bank faoliyati samaradorligini tasniflovchi ko'rsatkichlar va ularni ta'minlash ahamiyati

Zamonaviy sharoitda o'z aksionerlari, xodimlari, omonatchilari va kreditorlari manfaatini ta'minlash va bir vaqtning o'zida davlat nazorat organlari tomonidan bank siyosatiga, shuningdek kredit va investitsion operatsiyalarni olib borishga nisbatan qo'ygan talablarini bajarish vazifasi banklar uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. So'nggi yillarda bank tashkilotlari sonining ko'payib borishi oqibatida ular mahalliy hamda jahon pul va kapital bozorlariga chiqishga majbur bo'lishmoqda. Ko'pgina holatlarda mahalliy bozordan jalb qilingan depozitlarning o'sib borishi ham mijozlarning kredit mablag'lari va yangi xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondira olmayapti. Mablag'larni jalb qilish uchun kapital va pul bozoriga chiqish bank hisobotlarining investorlar va aholi tomonidan chuqur o'rganilishini talab etadi. Bu esa bank rahbariyatini qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi ishlarini faollashtirishni taqozo qiladi.

Shuningdek, banklarning omonatchilari va qarzдорlari uchun raqobat kurashining kuchayib borishining guvohi bo'lmoqdamiz. Kredit uyushmalari va kredit tashkilotlari banklarning an'anaviy bozori bo'lgan kredit va depozitlar bozorida o'z o'rnini topish uchun harakat qilmoqdalar. Bankirlar doimiy ravishda kredit va depozitlar, kengayish va o'sish rejalarini qayta ko'rib chiqishga, yangi raqobatchilik muhitida daromadlilik va risk darajasini baholashga majburdirlar. Vaziyat banklar o'rtasidagi bankrotlik holatlarining uchrab turishi bilan yanada og'irlashgan. Bunday bankrotliklarning aksariyat qismi boshqaruvdagi xatoliklar,

jinoyatchilik, iqtisodiy vaziyatning nobarqarorligi oqibatida kelib chiqqan. Bunday holat banklarni boshqarish masalasiga yangicha yondashish va noan'anaviy usullarni joriy etilishini taqozo qiladi.

Biz quyida bank faoliyatining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini, jumladan istalgan bankning eng muhim ko'rsatkichlari bo'lgan – daromadlilik va risklarni ko'rib chiqamiz. Nima bo'lganda ham, bank tadbirkorlik sub'ekti bo'lib, birinchi navbatdagi maqsadi risk darajasini minimal miqdorda ushlagan holda, unga kiritilgan aksiyadorlar kapitalini ko'paytirishdan iboratdir. Bunday maqsadga erishish uchun banklar kelgusi rivojlanishning yangi yo'llarini topish, daromadlilikni oshirish hamda samarali rejalashtirish va nazorat turlarini amaliyotga joriy etishlari zarur bo'ladi.

Bankning uzoq muddatli maqsadlarini aniqlash. Banklarning istalgan hisobotini tahlil qilishdagi birinchi qadam bankning qanday maqsadlarni ko'zlashini aniqlashdan iboratdir. Bank faoliyatini aniq maqsadga erishishga qaratilgan bo'lishi shart. Istalgan bank faoliyatini baholash aksionerlar va bank rahbariyati tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyati mavjudligini aniqlashdan boshlanishi zarur.

Muassasa qiymatini oshirish istalgan bankning eng muhim vazifasi. Bankning har kunlik faoliyatini belgilab beruvchi joriy maqsadlardan tashqari, banklar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalish – aksionerlik kapitalining qiymati masalasi mavjuddir. Haqiqatda, amaliyotga mos keluvchi moliyaviy menejmentning bosh prinsipi (istalgan o'zga maqsadlarga nisbatan birinchi navbatda) bank aksionerlik kapitali qiymatini maksimal darajaga chiqarishdan iborat. Aslida barcha banklar ham ma'lum ma'noda korporatsiya bo'lib, uning aksionerlari aksionerlik kapitali qiymati va u bo'yicha dividendlar miqdorining ko'payishidan manfaatdordir. Garchi aksiyalarning qiymati aksionerlar talabi darajasida bo'lmasa, investorlar aksiyalardan voz kechishlari mumkin, bu esa kelgusi rivojlanishni ta'minlash uchun banklar tomonidan yangi kapitalni jalb qilinishi jarayonida ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun,

bank rahbariyati o'z operatsiyalari bo'yicha riskning minimal darajasiga erishgan holda, aksionerlik kapitali qiymatini oshirishga harakat qilishi kerak.

Istalgan muassasa aksiyasining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

Bank aksiyasining qiymati = Kelgusida olinishi mo'ljallanayotgan dividendlar miqdori / Diskont omili (bank tomonidan zimmaga olinayotgan risk darajasi va daromadning kutilayotgan minimal darajasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi)

Bank aksiyasining qiymati quyidagi vaziyatlarning har birida o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi:

1. Kelajakda kutilayotgan dividendlar miqdori ko'payib borishi taxmin qilinadi (bank xizmatlari bozorining ma'lum segmentlarida faoliyatning faollashuvi va kengayishi yoki bank muassasi tomonidan foydali sotib olish operatsiyalarining amalga oshirilishi natijasida).

2. Kapital hajmining ko'payishi yoki kreditlar bo'yicha zararlarning kamayishi oqibatida bank zimmasidagi risk darajasining pasayishi.

3. Risk darajasining kamayishi bilan bir qatorda bank aksiyalari egalari olishi kutilayotgan dividendlar darajasi oshgan.

Bank aksiyalarning qiymatini oshirish uchun bank rahbariyati kelgusi daromadlarni oshirish hamda risklarni kamaytirish masalasi ustida jiddiy ishlashlari lozim.

Foydalilik ko'rsatkichlari. Korxona faoliyatining bozor bahosini belgilovchi eng yaxshi ko'rsatkich – aksiyalar bahosi harakati bo'lib hisoblanadi. Ammo bank ishida bu ko'rsatkich, aksariyat holatlarda, yetarli darajada aniq emas. Bu bank aksiyalarining xalqaro va milliy darajadagi oldi – sotti operatsiyalarining miqdori nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Bunday holat bozor ko'rsatkichlaridan o'zga indikatorlarga, jumladan foydalilik ko'rsatkichlariga murojaat qilishni taqozo qiladi.

Bank faoliyati foydaliligining eng ko'p ishlatiladigan nisbiy ko'rsatkichlar quyida tavisflab beramiz.

Foydalilik ko'rsatkichlarining tasnifi. Ko'rsatkichlarning har biri bank foydaliligining u yoki bu jihatini tavsiflaydi. Masalan, ROA – birinchi navbatda bank rahbariyati faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichidir. U bank muassasasi aktivlaridan sof foydani olish vazifasi qanchalik darajada bank rahbarlari tomonidan uddalanayotganlini bildiradi.

(1.1)

$$\text{Aktiv birligiga foyda (ROA)} = \frac{\text{Solliqlar to'langandan so'ng sof foyda}}{\text{Jami aktivlar}}$$

Shu bilan bir qatorda, ROE – bank aksionerlari uchun daromadlilik o'lchovidir. U aksionerlar tomonidan investitsiya qilingan mablag'lar bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan sof foydaning (ya'ni, ma'lum daromad olish uchun o'z mablag'larini joylashtirish yuzasidan riskning) taxminiy miqdorini ko'rsatadi.

(1.2)

$$\text{Xususiy (aksiyadorlik) kapitali foydaliligi (ROE)} = \frac{\text{Solliqlar to'langandan so'ng sof foyda}}{\text{Aksiyadorlik kapitali (ROE)}}$$

Operatsion daromadning sof marjasi, sof foiz marjasi va nofoiz marja samaradorlik va daromadlilik ko'rsatkichlari bo'lib, bank rahbariyati va xodimlarining daromadlarning (birinchi navbatda bank kreditlari va investitsiyalari bo'yicha foizlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission haq) xarajatlarga (asosan depozitlar va pul bozoridan qarzlar bo'yicha foiz to'lovlari) nisbatan tezroq o'sishini ta'minlash yuzasidan muvaffaqiyatli (yoki muvaffaqiyatsiz) faoliyatini baholashga xizmat qiladi. Sof foizli marja foizlar bo'yicha olingan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq (spred) ni aniqlaydi va bank xodimlari tomonidan bankning daromadli aktivlarini optimal ishlata olishi va jalb qilinayotgan mablag'larning arzon manbalarini topa olish ishlari qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

(1.3)

$$\text{Sof foiz marjasi} = \frac{\text{Kreditlar va qimmatli investitsiyalardan olingan foizli daromad} - \text{depozitlar va boshqa emitentlashgan qarz to'lovlari bo'yicha foiz to'lov}}{\text{Aktivlar}}$$

Nofoiz marja nofoiz ko‘rinishidagi daromadlar (banklar tomonidan depozitlarga xizmat ko‘rsatishdan va boshqa xizmatlardan olingan komission xaq) va nofoiz xarajatlar (jumladan ish xaqi, bank uskunalariga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash, kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash) o‘rtasidagi farqni aniqlaydi. Ko‘pgina banklarda, keyingi paytlarda turli xildagi xizmatlarni ko‘rsatishdan olinadigan komission mukofotning (masalan, xalqaro pul o‘tkazmalaridan) oshib borishi hisobiga nofoizli marja ijobiydir, chunki foizsiz xarajatlar hajmi tegishli daromadlar hajmiga nisbatan kamroq.

(1.4)

$$\text{Sof foizsiz marja} = \frac{\text{Foizsiz daromadlar} - \text{foizsiz xarajatlar}}{\text{Aktivlar}}$$

Nihoyat, bir aksiyaga to‘g‘ri keluvchi sof foyda ko‘rsatkichi bankning asosiy egalari bo‘lgan aksionerlar foydasiga to‘lovlarni amalga oshirilishi holatini ko‘rsatadi.

(1.5)

$$\text{Bir aksiyaga to'g'ri keluvchi sof foyda} = \frac{\text{Solliqlar to'langandan so'ng sof foyda}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar}}$$

Bank daromadliligining yana bir an‘anaviy ko‘rsatkichi foyda farqi (spred) ko‘rsatkichidir va u quyidagicha aniqlanadi:

(1.6)

$$\text{Foyda spredi} = \frac{\text{Foizli daromadlar} - \text{Foizli xarajatlar}}{\text{Daromadli aktivlar} - \text{Foiz to'lanadigan bank passivlari}}$$

Spred yordamida bank omonatchilar va qarzdorlar o‘rtasidagi vositachilik rolini qanchalik darajada muvaffaqiyatli barayotganligi hamda bank xizmati bozoridagi raqobat darajasi aniqlanadi. Xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayishi odatda aktivlar bo‘yicha o‘rtacha daromadlar hamda passivlar bo‘yicha o‘rtacha xarajatlar o‘rtasidagi farqni kamaytiradi. Bu esa bank rahbariyatini foyda spredini qoplash uchun foyda olishning yangi yo‘llarini (masalan yangi turdagi xizmatlarni taklif qilish shaklida) qidirishga majbur qiladi.

Shuningdek, bankning daromadlilik ko'rsatkichlaridan yana biri jami operatsion foydaning jami aktivlarga nisbati sifatida aniqlangan operatsion foyda marjasi hisoblanadi. Daromadlilikning ushbu ko'rsatkichi ikki qismga bo'linishi mumkin – aktivlar bo'yicha o'rtacha foizli daromad va aktivlar bo'yicha o'rtacha foizsiz daromadlar. Oxirgi element turli xizmatlar (masalan, xalqaro pul o'tkazmalari) ko'rsatishdan olingan komission mukofot evaziga tashkil topadi.

Bank operatsion faoliyatida olingan daromadlaridan operatsion xarajatlarini chegirib tashlash va chiqqan summani aktivlarga bo'lish orqali bankning sof foiz marjasini topadi.

(1.7)

$$\text{Bank sof operatsion foyda marjasi} = \frac{\text{Operatsion daromadlar} - \text{operatsion xarajatlar}}{\text{Aktivlar}}$$

Kreditlar va boshqa daromadli aktivlar bozoridagi raqobatning keskinlashuvi va ko'pgina kreditlarning «umidsiz» sifatida baholanishi oqibatida, juda ko'p banklar komission mukofot shaklidagi foizsiz daromadlarni oshirishga katta e'tibor bilan qarasha boshlashdi. Bunday mukofotlar jami foyda miqdorining oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida aksionerlarga to'lovlarni ko'paytiradi. Bundan tashqari bank rahbarlari daromad keltirmaydigan aktivlarga (masalan, kassadagi naqd pul, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar) yo'naltirilgan resurslar hajmini kamaytirishga harakat qilishmoqda. Daromad keltirmaydigan aktivlarning nisbiy muhimlik darajasini (kreditlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ko'rinishidagi to'g'ridan – to'g'ri daromad keltiruvchi aktivlarga taqqoslangan holda) aniqlashga yordam beruvchi ko'rsatkichlardan biri – daromad bazasi ko'rsatkichi hisoblanadi va quyidagicha hisoblanadi:

(1.8)

$$\text{Aktivlarning daromad bazasi} = \frac{\text{Kreditlar} + \text{Lizing} + \text{Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar}}{\text{Jami aktivlar}}$$

$$\text{Aktivlarning daromad bazasi} = \frac{\text{Jami aktivlar} - \text{Daromad keltirmaydigan aktivlar}}{\text{Jami aktivlar}}$$

Daromad bazasi kamayib borayotgan bank rahbariyati va xodimlari mavjud daromad bazasini saqlab qolish uchun faol ish olib borishlari zarur bo'ladi.

Daromadlilikning qo'shimcha formulalari. Bank qanchalik darajada samarali faoliyat ko'rsatishini tahlil qilishda daromadlilikning ba'zi ko'rsatkichlarini qismlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Masalan, hozirgi paytda keng ishlatilayotgan ROE va ROA ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ko'rish qiyin emas. Ikkalasida ham soliqlar to'langandan so'nggi foyda ko'rsatkichi ishlatiladi. Shuning uchun ikkala ko'rsatkichni to'g'ridan – to'g'ri bog'lash mumkin:

(1.9)

$$ROE = ROA \times \frac{\text{Aktivlar}}{\text{Aksiyadorlik kapitali}}$$

Bankning sof foydasi jami daromadlardan operatsion xarajatlar (foizlarni to'lash xarajatlari hisobga olingan holda) ning chegirilganidan so'ng qolgan summaga tengligini inobatga olsak:

(1.10)

$$ROE = \frac{\text{Daromadlar} - \text{operatsion xarajatlar} - \text{soliqlar}}{\text{Aktivlar}} \times \frac{\text{Aktivlar}}{\text{Aksiyadorlik kapitali}}^{10}$$

Ushbu aloqadorlik aksiyadorlarga yo'naltiriladigan bank foydasining bank resurslari qanday manbalar hisobiga shakllantirilishiga (qarz majburiyatlari hisobigami yoki bank egalari mablag'i hisobigami) yuqori darajada sezgirligidan dalolat beradi. ROA ning past darajasiga ega bo'lgan bank bank aksiyadorlari kapitalini kam miqdorda ishlatilishi va qarz majburiyatlaridan keng foydalanish evaziga ROE ning yuqori darajasiga erishishi mumkin.

ROA ko'rsatkichi bilan aniqlangan samaradorlikning pasayishi oqibatida, bank aksiyadorlari istalgan darajadagi daromadga erishish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, qarz majburiyatlari va aksioner kapitali o'rtasidagi nisbatni ko'paytirish ko'rinishidagi yuqori riskni bank o'z zimmasiga olishiga to'g'ri keladi.

¹⁰ Formulalar Jahon Bankining rasmiy veb sayti www.worldbank.org ma'lumotlari asosida tuzib chiqildi.

Bank daromadi marjasi – bank xizmatlariga narx o‘rnatish siyosati va xarajatlarini boshqarish samaradorligini aks ettiradi.

Bank aktivlaridan foydalanish koeffitsenti – bank aktivlari portfelidan foydalanish siyosatining samaradorligini aniqlaydi.

Kapital multiplikatori – bank resurslarini shakllantirishda manbalarni tanlash (qarz majburiyatlari yoki aksionerlik kapitali) jihatidan moliyalashtirish siyosatining olib borilishi yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Garchi ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan biron – birining kamayishi kuzatilsa, bank rahbariyati bundan o‘zgarishlarning sabablarini zudlik bilan aniqlashlari hamda tegishli chora – tadbirlar ko‘rishlari shart.

Keltirilgan 3 moliyaviy ko‘rsatkichdan eng katta ahamiyatga ega bo‘lgani kapital multiplikatoridir. Multiplikator bank moliyaviy siyosati yo‘nalishining ko‘rsatkichi bo‘lib, aksionerlik kapitalining 1 so‘mi necha so‘mlik aktivlarni ta‘minlaganini ko‘rsatadi hamda mos ravishda bank resurslarining qancha qismi qarz majburiyatlari ko‘rinishida joylashtirilishi mumkinligini aniqlaydi. Aksionerlik kapitali bank aktivlari bo‘yicha zararlarni qoplashga yo‘naltirilishini hisobga olsak, multiplikator darajasining ko‘tarilishi bankning bankrotlikka duch kelishi ehtimolini oshirishi mumkin. Ammo ikkinchi tomondan multiplikator darajasining ko‘payishi aksiyadorlarga to‘lovlar miqdorining ko‘payishiga ham olib keladi.

Foyda marjasi yoki sof foydaning jami daromadlarga nisbati ko‘rsatkichi ham bank rahbariyati tomonidan nazorat va boshqaruv obyekti hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich banklar xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va daromadlilik darajasini maksimallashtirish bilan aksionerlarga to‘lovlarni ko‘paytirish mumkinligini eslatib turadi. Bank o‘xshash tarzda aktivlarning o‘rtacha daromadlilik darajasini oshirishi mumkin (ya‘ni risklar hisobga olingan holda bank aktivlarini daromadliroq bo‘lgan kreditlar va investitsiyalarga qayta taqsimlash).

ROE ko'rsatkichi formulasiga kiritilgan (va unchalik ahamiyatli bo'lmagan) korrektivalar bankni boshqarish sohasiga muammolarni aniqlash imkoniyati beruvchi tenglamani chiqarish imkoniyatini beradi:

$$\text{ROE} = (\text{Soliqlar to'langandan so'nggi foyda} / \text{Soliq to'langunga va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar hisobga olingunga qadar foyda}) \times (\text{Soliq to'langunga va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar hisobga olingunga qadar foyda} / \text{Operatsion daromadlar}) \times (\text{Operatsion daromadlar} / \text{Jami aktivlar}) \times (\text{Jami aktivlar} / \text{Aksionerlik kapitali})$$

yoki

$$\text{ROE} = \text{Soliqlarni boshqarish samaradorligi} \times \text{Xarajatlar ustidan nazoratning samaradorligi} \times \text{Aktivlarni boshqarish samaradorligi} \times \text{Resurslarni boshqarish samaradorligi}.$$

Yuqoridagi holda biz bank foydasi marjasini (soliqlar to'langandan so'nggi foydaning jami daromadlarga nisbati) ikki qismga bo'ldik: 1) Soliqlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichi (u bankning soliq to'lovlarini minimallashtirish uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha foyda yoki zararlar hamda soliqlarni boshqarishning boshqa instrumentlaridan qanchalik darajada foydalanilganligini ko'rsatadi); 2) Operatsion xarajatlar chegirilgandan so'ng qancha daromad qolishi ko'rsatkichi bo'lgan soliq to'langunga qadar foydaning jami daromadlarga nisbati (ya'ni, operatsion faoliyat va xarajatlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichi).

Haqiqatda, ROA uch sodda nisbatga asoslanadi:

$$\text{Sof foiz marjasi} = (\text{foizli daromadlar} - \text{foizli xarajatlar}) / \text{jami aktivlar}$$

plyus

$$\text{Foizsiz marja} = (\text{foizsiz daromadlar} - \text{foizsiz xarajatlar}) / \text{jami aktivlar}$$

minus

$$\text{Sof foydaga ta'sir o'tkazuvchi maxsus operatsiyalar} = \text{maxsus operatsiyalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar} / \text{jami aktivlar}$$

teng

Aktivlarning daromadliligi (ROA yoki bankning aktivlardan foyda olish imkoniyati) = soliqlar to'langandan so'nggi sof foyda / jami aktivlar

Bunday strukturaviy tahlil banklar moliyaviy pozitsiyalarida yuz bergan o'zgarishlarni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb qilishi mumkin.

Bank daromadliligi ko'rsatkichlarining strukturaviy tahlilidan xulosa. Bank daromadliligi ko'rsatkichlarining strukturaviy tahlili (ya'ni, ushbu ko'rsatkichlarning alohida komponentlarini tahlil qilish) bank daromadlari sohasida bank duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari va bank rahbariyati e'tibor qaratishi zarur bo'lgan masalalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bank yuqori daromadlilik darajasiga erishishi quyidagi asosiy omillarga bog'liq:

1. Moliyaviy richaglarni maqsadga muvofiq ravishda ishlatish (yoki qarz majburiyatlari hisobidan moliyalashtiriladigan bank aktivlarining aksionerlik kapitaliga nisbati).

2. Fiksatsiyalangan aktivlar bo'yicha operatsion richaglarni maqsadga muvofiq ravishda ishlatish (yoki fiksatsiyalangan xarajatlarning salmog'i).

3. Operatsion xarajatlar ustidan nazoratni o'rnatish bilan aksariyat qism daromadlarning sof foydaga aylantirilishi.

4. Istalgan aktivdan maksimal daromad olishga yo'naltirilgan faoliyat, likvidlilik normativlariga mos kelishini ta'minlash uchun aktivlar portfeli ustidan nazoratning o'rnatilishi.

5. Zararlar bank foydasi va aksionerlik kapitalini nolga tushirib qo'ymasligi uchun, bank operatsiyalarining risk darajasi ustidan nazorat o'rnatish.

1.3. Bank faoliyati samaradorligini tahlil va nazorat qilishning xorij tajribasi

Tijorat banklari moliyaviy natijalarni boshqarishning asosiy vazifasi bankning barqarorligini ta'minlagan holda, uning foydasini ko'paytirish va bozor qiymatini oshirishdir. Bu vazifalarni bajarish uchun mavjud resurslarni to'g'ri joylashtirish va samarali foydalanish, beriladigan kreditlarning xatarlilik darajasini pasaytirish, xamda bank faoliyatini rivojlantirish uchun yetarli marjani ta'minlaydigan foiz stavkalarini belgilashdir.

Bank faoliyatini boshqarishning eng maqbul yo'li markazlashtirilgan tarzda boshqaruv qarorlari qabul qilishdir. Lekin bank faoliyatining kengayishi, bo'limlar va filiallarning paydo bo'lishi, qarorlarni qabul qilish vakolatini banklarning alohida tuzilmaviy bo'linmalariga berishga to'g'ri keldi.

Har qanday boshqaruv modeli quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- qaror qabul qilinishini tezlashtirish;
- o'zgaruvchan bozor sharoitlariga javob berishning tezkorligini;
- shahobchalar (bo'limlar) faoliyati nazorat kilinishi mumkinligini.

Tijorat banklari boshqaruvi samaradorligiga kuyidagi omillar ta'sir kiladi:

- mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat barqarorligi;
- bank boshqaruvi amalga oshirilishining asosi xisoblangan: strategik, taktik va joriy rejalashtirish mavjudligi;
- bank rahbariyati va xodimlar malakaviy darajalari;
- boshqaruv axborot tizimlarining tashkil etilishi;
- bank resurs bazasining shakllanish darajasi;
- standart kreditlarga ehtiyojning, kreditni qaytarishga qodir qarz oluvchilarning mavjudligi;
- pul va pul muomalasi bozorning rivojlanganligi va barqarorligi;
- bankning va uning bo'linmalarining moliyaviy ahvolini muntazam ravishda kuzatib borish imkoniyatining mavjudligi va shu kabilar.

Hozirgi paytda turli mamlakatlardagi boshqaruv organlarining tijorat banklari faoliyatini baholash tizimlari quyidagi jadvalda berilgan (1.2-jadval).

1.2-jadval

Tijorat banklari faoliyatini baholash tizimlari¹¹

Mamlakat	Nazorat organi	Tizim	Tizim joriy qilingan yil	Tizim toifasi
Fransiya	Bank komissiyasi	ORAP	1997 yil	Masofadan monitoring (MM)
Germaniya	Federal nazorat organi	BAKIS	1997 yil	Moliya koeffitsientlari va guruhlab tahlil qilish tizimi
Italiya	Italiya banki	PATROL	1933 yil	MM, baholashning reyting tizimi
Niderlandiya	Niderlandiya banki	RAST	1999 yil	Riskni baholashiing yalpi tizimi
Angliya	Moliya xizmatlarini boshqarish	RATE	1998 yil	Riskni baxolashning yalpi tizimi
AQSH	Barcha nazorat organlari	CAMELS	1978 yil	Tekshiruv natijalari bo'yicha joyida reyting berish
Buyuk Britaniya	Moliyaviy siyosat bo'yicha	RATE (xatarni baxolash va nazorat me'yori tizimi)	1998	Bank xatarlarini baxolash kompleks tizimi

AQSH Federal Zaxira Tizimining CAMELS reyting tizimi

Yuqoridagi 1.2-jadval asosida biz AQSHning tekshiruv natijalari bo'yicha reyting berish tizimi CAMELS ni ko'rib chiqamiz. CAMELS reyting tizimi AQSH FZT tomonidan ishlab chiqilgan. Uni baholash mezonlari quyidagi komponentlardan iborat:

- kapitalning yetarliligi;

¹¹ "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 576 с.

- aktivlarning sifati;
- daromadlilik;
- likvidlilik;
- menejment;
- bozor riskiga ta'sirchanlik.

Mazkur reyting tizimida kapital tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidliligini ta'minlashning ishonchli vositasi hisoblanadi. Shu sababli, CAMELS reyting tizimiga asoslangan inspeksion tekshirish jarayonida tijorat banklarining kapital bazasida yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishga, sabablarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Tekshirish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

CAMELS reyting tizimida moliyaviy leveraj koeffitsenti ham hisoblanadi. Ushbu koeffitsent bank asosiy kapitalini aktivlarning jami summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Uning me'yoriy darajasi 3% qilib belgilangan.

1.3-jadval

CAMELS reyting tizimida kapitalning yetarliligini baholash¹²

Reyting	Asosiy kapitalning yetarlilik koeffitsenti	Umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsenti	Cheklovlar
1 ball (kuchli)	4 % dan ancha yuqori	8 % dan ancha yuqori	Aktivlarning sifati kamida 2; riskli aktivlar koeffitsenti 11 foizdan yuqori emas.
2 ball (qoniqarli)	4 % dan sezilarli darajada yuqori	8 % dan sezilarli darajada yuqori	Aktivlar sifati 3 ga teng; riskli aktivlar koeffitsenti cheklanmagan.
3 ball (o'rta)	4 % darajasida	8 % darajasida	Aktivlar sifati 4 ga teng; riskli aktivlar koeffitsenti cheklanmagan.
4 ball (chegaraviy)	4 % dan sezilarsiz darajada past	8 % dan sezilarsiz darajada past	Ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi boshlang'ich kapital summasidan ortiq..
5 ball (qoniqarsiz)	4 % dan sezilarli darajada past	8 % dan sezilarli darajada past	Zararlar boshlang'ich kapital summasidan ortiq.

¹² "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004.

CAMELS reyting tizimida kapitalning yetarliligi 5 balli tizimda baholanadi. Bunda asosiy kapitalning yetarlilik koeffitsenti va umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsentlari baholanadi (**1.3-jadval**).

CAMELS reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, aktivlarning umumiy riskini bank kapitaliga nisbati hisoblanadi.

O'zbekistonda esa quyidagicha belgilangan:

Aktivlarning umumiy riski miqdorini hisoblash uchun barcha aktivlar 5 guruhga ajratiladi:

- standart;
- substandart;
- qoniqarsiz;
- shubhali;
- umidsiz.

Shundan so'nggi uch toifadagi aktivlarga nisbatan quyidagi risk darajalari belgilangan:

- standart-1%;
- substandart-10%;
- qoniqarsiz-25%;
- shubhali-50%;
- umidsiz-100%.

Aktivlarning sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich aktivlar umumiy riskining absolyut miqdori ko'rsatkichi (UR) orqali aniqlanadi. O'z navbatida, UR ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{UR} = \text{Standart} \times 0,01 + \text{Substandart} \times 0,1 + \text{Qoniqarsiz aktivlar} \times 0,2 + \\ \text{Shubhali aktivlar} \times 0,5 + \text{Umidsiz aktivlar} \times 1,0$$

Demak, aktivlarning sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{UR: } K \times 100$$

CAMELS reyting tizimida aktivlarning sifatini baholash 5 darajada olib boriladi. Bunda eng quyi ko'rsatkich 5 foizgacha baholansa eng yuqorisi 50 foizdan yuqori qilib belgilanadi.

1.4-jadval

CAMELS reyting tizimida aktivlarning sifatini baholash¹³

Reyting	Aktivlar sifati asosiy ko'rsatkichining darajasi, %
1	5 gacha
2	5 dan 15 gacha
3	15 dan 30 gacha
4	30 dan 50 gacha
5	50 dan yuqori

CAMELS reyting tizimida tijorat banki foydasining darajasini baholash uchun qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ammo asosiy koeffitsent sifatida foydalilik koeffitsenti tanlab olingan.

Foydalilik koeffitsenti (FK) quyidagicha aniqlanadi:

(1.11)

$$FK = \frac{\text{Sof foyda (solliqlarni to'lagandan so'ng)}}{\text{Aktivlarning o'rtacha miqdori}} \times 100\%$$

Foydalilik koeffitsentining me'yoriy darajasi banklar guruhi bo'yicha alohida o'rnatiladi. Banklar esa, aktivlarining miqdoriga qarab guruhlanadi. CAMELS reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining miqdoriga qarab 5 guruhga bo'linadi: 100 mln. dollargacha aktivga ega bo'lgan aktivlar; 100 dan 300 mln. dollargacha aktivga ega bo'lgan banklar; 300 mln. dollardan 1 mlrd. dollargacha aktivga ega bo'lgan banklar; 1 mlrd. dollardan 5 mlrd. dollargacha aktivga ega bo'lgan banklar.

CAMELS reyting tizimida banklarning likvidliligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

1. Depozitlarning barqarorligi.

¹³ "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004.

Depozitlarning barqarorligini aniqlash uchun barqaror depozitlar jami depozitlarga taqsimlanadi va olingan natija 100 % ga ko'paytiriladi. Ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi 75 foizga teng.

2. Aktivlarning pul mablag'lariga aylanish darajasi.

Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun likvidli aktivlar brutto aktivlar summasiga bo'linadi va olingan natija 100 %ga ko'paytiriladi.

3. Tijorat banki uchun tashqi manbalardan foydalanish imkoniyati darajasi.

Mazkur ko'rsatkichni hisoblash uchun boshqa banklardan olingan kreditlar bank tomonidan jalb etilgan resurslarning jami summasiga bo'linadi va olingan natija 100 %ga ko'paytiriladi.

4. Bankning likvidlilik bo'yicha ichki siyosatida belgilangan me'yoriy darajalarga erishishning ta'minlanganligi.

5. Bank aktivlari va passivlarini boshqarish bo'yicha strategiyaning samaradorlik darajasi.

Ushbu samaradorlik darajasi ssudalar va depozitlar o'rtasidagi hamda boshqa banklardan olingan kreditlar va jalb etilgan mablag'lar o'rtasidagi nisbatning dinamikasini tahlil qilish orqali baholanadi.

CAMELS reyting tizimida bank menejmenti quyidagi tartibda baholanadi:

Birinchi daraja - bank rahbariyati o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarmoqda, yuzaga keladigan muammolarni hal etish imkonini beradigan qarorlar qabul qilish salohiyatiga ega.

Ikkinchi daraja - ayrim kichik muammolar mavjud bo'lsada, bank rahbariyati bankni oqilona va ehtiyotkor tarzda boshqarish imkoniyatiga ega.

Uchinchi daraja - bank rahbariyati bankni boshqarish uchun yetarli darajada malaka va qobiliyatga ega emas. Ushbu rahbariyat joriy davrda bankni boshqarishga qodir. Ammo muammoli holatlarda vaziyatdan chiqish uchun professionalizm yetishmaydi.

To'rtinchi daraja - bank rahbariyati unga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir emas. Rahbariyat kapitalning yetarliligini ta'minlash, aktivlarning daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlay olmaydi.

Beshinchi daraja - Bank rahbariyati bankni boshqarish uchun kompetensiyaga ega emas.

1997 yilning 1 yanvaridan boshlab, CAMEL reyting tizimiga S elementi kiritildi.

S elementi tijorat banki kapitali va foydasining bozor riskiga ta'sirini ifodalaydi.

Yaponiyada barcha faoliyat yurituvchi sub'ektlarida biznes mustaqilligi, hamda yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlarga-munosib rag'batlantirish muhim o'rin egallaydi. Yaponiyada korporatsiyalar ko'p bo'lib, ularni boshqarishda, bo'linmalar (filiallar) foyda ko'rish markazlari usuli qo'llanadi.

Foyda ko'rish markazlari faoliyati samaradorligi boshqaruv hisobi asosiy muammosi-bankni saqlab turish bilan bog'lik umumiy xarajatlarning ushbu tuzilmaviy birliklarga to'g'ri taqsimlashdir. Yaponiyada hozirgi zamon EIM imkoniyatlaridan to'lik foydalangan holda, Z deb ataluvchi boshqaruv nazariyasi ko'p qo'llaniladi.

Z – nazariyasining asosiy tamoyillari quyidagilar:

- menejerlar va xodimlar o'rtasida ishonchli munosabat;
- umumiy axloqiy aqidalarga chuqur ishonchlilik;
- to'la bandlik siyosati («umrbod yollanish»);
- mehnatga shaxsiy manfaatdorlik;
- qaror qabul qilishda xodimning shaxsan ishtirok etishi;
- asoslangan nazorat;
- xodimga nisbatan xolisano yondashuv: shaxsi butunlikning oliy shakli sifatida xodimlarning barcha extiyojlarini qondirish masalasi.

I bob bo'yicha xulosa

Samaradorlik tahlili garchi XIX -XX asrga qadar kam olib borilgan bo'lsada, ayni vaqtda bu tadqiqotchilar qiziqishining markazida turibdi. Tijorat banklarining samaradorligini hisoblash bankning kelgusi faoliyat yo'nalishini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarbliligi ham mana shu jihati bilan ajratib beriladi.

Samaradorlik ko'pincha unumdorlik bilan aniqlanadi. Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli mashxur kitobida mehnat ishchi malakasi va unumdorlikda eng katta rivojlanishlarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.¹⁴ Smit fikricha ish unumdorligini oshishi bu ish vaqtini tejash va bir kishi qiladigan mehnatni qisqartiruvchi hamda unga imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi ko'plab mehanizmlar kashf qilinishiga erishishdir.

Yuqoridagi birinchi bob bizga tijorat banklar faoliyatini samaradorligi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini umumiy tushunchalari, iqtisodiy mohiyati hamda bu boradagi xalqaro nazariya va amaliyotni yoritib berdi. Unga ko'ra bank faoliyatini samaradorligini oshirishda ko'rsatkichlar darajasiga katta e'tibor berish lozim.

Xalqaro amaliyotda ROA va ROE ko'rsatkichlar tizimi bu bankning samaradorligini baholashda muhim deb e'tirof etiladi. Ammo ko'pchilik fikriga ko'ra aktivlar qaytimi bankning haqiqiy samaradorligi yoki "performance"ni ochib berishda eng yaxshi ko'rsatkich sifatida hisoblanadi

Turli mamlakatlar o'zlarining mavjud bank tizimini baholab turish uchun o'zlarining maxsus baholash tizimlarini ishlab chiqqan. Jumladan AQSH CAMELS tizimi bank faoliyatini to'g'ri va to'liq yoritib beruvchi baholash tizimi hisoblanadi. Shu sababdan ham CAMELS nafaqat bir mamlakat bank tizimida balki xalqaro amaliyotda ham keng qo'llaniladi.

14 A.Smit "Xalqlar boyligining tabiati va uning sabablari to'g'risida tadqiqot". 1776 y. Chikago. Chikago Univeristeti nashriyoti

II BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI AMALIYOTDAGI HOLATI VA UNING TAHLILI

2.1. Tijorat banklarining samaradorlini ta'minlanishini tahlili

Biz yuqorida tijorat banklarining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularga ta'sir qiluvchi omillar hamda chet el bank tizimida samaradorlik tahlilining nazariy asoslarini ko'rib chiqdik. Biz ushbu bobda asosiy urg'uni yuqoridagi ko'rsatkichlarni bir bank kesimida emas balki ularning mulkchilik shakllarini barcha turlarida tahlil qilib, kerakli xulosalarni shakllantiramiz. Fikrimizcha mamlakatimiz bank tizimini mulkchilik kesimida tahlil qilib chiqish orqali bank tizimini rivojlantirish uchun kerakli ilmiy amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

2.1-jadval

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida MA'LUMOT ¹⁵

(mlrd. so'm)

Ko'rsatkich nomi	01.05.2017 y.			01.05.2018 y.			Nominal o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi, (devalvatsiya ni hisobga olmagan holda) foizda
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda	Jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Bank aktivlari, jami	92 890	41 499	44,7%	179 670	105 479	58,7%	93,4%	32,0%
Kredit qo'yilmalari, jami	62 784	26 437	42,1%	127 233	75 027	59,0%	102,7%	38,0%
Jalb qilingan jami depozitlar	38 174	11 763	30,8%	61 732	27 317	44,3%	61,7%	23,0%
Jami kapital	9 900	2 620	26,5%	23 359	2 311	9,9%	136,0%	123,3%

¹⁵ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 28 ta tijorat banki mavjud bo‘lib, shulardan 3 tasi davlat banklari, aksiyadorlik tijorat banklari, 8 ta xususiy banklar va 5 ta chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar sifatida aktivlar, kreditlar, depozitlar va majburiyatlar, kapital va zaxiralar, aktivlar sifati, bank sektorining samaradorligi va likvidliligi qo‘llaniladi. Markaziy bankning bergan ma’lumotlariga ko‘ra 1 may holatiga banklarning umumiy aktivlari o‘tgan yil nisbatan 93.4% o‘shishni tashkil qilgan **(2.1-jadval)**. 2017 yilda 92 890 mlrd so‘mni 2018 yil may oyida esa 179669,6 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Ammo bu jarayonda ortiqcha 0.15% o‘shish mavjud bo‘lib biz uni Ziraat bankning mamlakat moliya bozoriga kirib kelishi bilan bog‘lashimiz mumkin. Shu bilan birga mijozlarning depozitlari o‘tgan yilga nisbatan 61.7 foizga o‘sgan. 2017 yil may oyida 38 174 mlrd so‘mni 2018 may oyida esa 61 732 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichdagi o‘shish banklar tomonidan depozitlarni mobilizatsiya qilishning kengayishi bilan izohlashimiz mumkin va bundan tashqari ular yangi filiallariga ochish orqali yangi depozitlar bazasiga ega bo‘lishdi.

Kredit qo‘yilmalari o‘tgan yilga nisbatan deyarli ikki barobarga oshgan. 2017 yilda 62784 mlrd so‘m hajmidagi kredit qo‘yilmalari yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib bu 127 233 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Buning asosiy sababi sifatida esa biz eng avvalo yurtimizda aholini tadbirkorlikka yo‘naltiruvchi kreditlar hisobiga kredit qo‘yilmalari ortganligini nazardan qochirmasligimiz lozim.

2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Bank tizimi daromadlik ko‘rsatkichlari¹⁶

<u>K/Y</u>	<u>2017</u>	<u>2018</u>
ROA	2,4	1,6
ROE	22,6	12,5

¹⁶ www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Biz endi bank tizimining umumiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqib tahlilini olib boramiz. Yuqoridagi 2.2-jadvalga asosan mamlakat bank tizimining ROA ko'rsatkichi 2017 yilda 2.4 koeffitsienti 2018 yilda esa 1.6 koeffitsientni tashkil qilgan. Ya'ni umumiy ko'rsatkich pasayganini ko'rishimiz mumkin. Kapital qaytimi bo'yicha 2017 yilda 22.6 foizni 2018 yilda esa 12.5 foizni tashkil qilgan. Umumiy ko'rsatkichlarning har ikkalasida ham pasayishni kuzatishimiz mumkin. Ammo biz bank tizimida 28 ta bank borligi va ularning mulkchilik shakllari har xil bo'lganligi sababli ularning barchasida pasayish kuzatilgan degan qisqa xulosani berolmaymiz. Shuning uchun biz endi bank tizimida mavjud mulkchilik shakllari bo'yicha to'rtta bankni samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi ba'zi omillarni tahlilini ko'rib tegishli xulosa va tavsiyalar berishga harakat qilamiz.

O'zbekistonda davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar soni 11 tani tashkil qiladi. Ular quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki, "Asaka" aksiyadorlik tijorat banki, "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki, "Ipotekabank" aksiyadorlik tijorat banki, "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki, "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki, "Aloqabank" aksiyadorlik tijorat banki, "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki, "O'zagroeksportbank" aksiyadorlik tijorat banki va "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki. Davlat ulushi qatnashmagan banklar soni esa 17 tani tashkil qiladi. Buning ma'nosi shuki, davlat bank tizimida asosiy rol o'ynay oladi chunki u deyarli 80 aktivlarga egalik qilib 11 eng katta banklar faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda mamlakatimizda mulkchilik shakllari bo'yicha banklar to'rtta guruhga bo'linadi:

1. Davlat banklari
2. Aksiyadorlik tijorat banklari
3. Xususiy banklar
4. Chet el kapitali ishtirokidagi banklar

Biz yuqorida umumrespublika miqyosida bankning umumiy ko'rsatkichlarini keltirib o'tdik. Endi esa ushbu to'rtta yo'nalishda banklarning samaradorlik ko'rsatkichlari holatini va unga bevosita hamda bilvosita ta'sir qiluvchi ba'zi omillarni tahlil qilamiz. 2.3-jadvaldagi ma'lumotlar orqali umum bank tizimining ROA va ROE ko'rsatkichlarini pasayishini ko'rdik. Lekin ta'kidlaganimizdek, bu barcha banklarda pasayish degan xulosani bermaydi. Aynan mana shuning uchun ham alohida mulkchilik shakllari bo'yicha tahlillarni olib boramiz.

2.3-jadval

Banklarda ROA ko'rsatkichi dinamikasi¹⁷

	Yillar	2013	2014	2015	2016	2017
	Banklar					
1	Xalq	1,49	1,52	0,28	0,28	2,45
2	Aloqa	2,36	2,02	2,28	2,10	2,52
3	Hamkor	3,65	2,74	3,03	2,67	2,43
4	OFB	2,19	5,91	5,30	3,77	6,54

Dastlab biz davlat banki sifatida 198 ta filiali shuningdek, 26 ta mini-bank, 1250 ta jamg'arma, maxsus, kommunal va ko'chma (sayyor) kassalariga ega bo'lgan Xalq bankining aktivlar qaytimini ko'rib chiqamiz. Xalq banki faoliyatini tahlil qilish davomida shu narsa kelib chiqadiki, joriy vaqtga nisbatan 2013-2014 yillarda bank ancha samarali faoliyat yuritgan. Chunki ushbu yillar oralig'ida banking ROA ko'rsatkichi mos ravishda 1.49 va 1.52 koeffitsentni tashkil qilgan. 2015- yil va 2016 yillarga kelib bu ko'rsatkich bir xil ya'ni 0.28 ni tashkil qilgan. Ushbu bankda ROA ning pasayib ketishiga uning sof foydasining keskin tushib ketishi sabab bo'lgan. 2013-2014 yillarda mos ravishda 40434570 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 80 foizga kamayib ketgan. Ya'ni 2015 yilda 9 845 217ming so'mni tashkil qilgan. 2016 yilga kelib ham bor yo'g'i 20 foizga ko'tarilib 11 846 599 ming so'mni tashkil qilgan.

¹⁷ Muallif tomonidan banklarning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

Mulkchilik shaklining ikkinchi guruhi bu aksiyadorlik tijorat banklari bo'lib, biz ushbu guruhdan bugungi kunda kuchli xodimlar tarkibiga ega va rivojlanishning o'ziga xos yo'nalishidan borayotgan AT "Aloqabank"ni tahlil qilishga harakat qildik. Bank ROA ko'rsatkichi bo'yicha 2013 yilda 2.32, 2014 yilda 2.02, 2015 yilda 2.28, 2016 yilda 2.10 va 2017 yilda mos ravishda 2.52 ko'effitsentga erishgan. Ko'rinib turibdiki bank o'z faoliyatini bir maromda olib bormoqda.

Uchinchi guruhimiz bu chet el kapitali ishtirokidagi banklar bo'lib, biz ushbu guruhdan Hamkorbank faoliyatini tahlil qildik. Hamkorbank ham ROA ko'rsatkichini ham deyarli bir maromda ushlab turgan. Buning asosiy sababi sof foyda va aktivlar o'sishining nisbatining bir biriga yaqinligidi. Ya'ni deyarli yaqin interval oralig'ida o'zgargan.

To'rtinchi guruh ya'ni xususiy banklar yo'nalishi bo'yicha Orient Finans Bank(OFB) ni tahlil qilib chiqdik. OFB 2013 yilda o'z aktivlari qaytimi 2.19 ni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilga kelib bu keskin oshadi. Ya'ni 5.91 ko'effitsentga yetadi. Buning asosiy sababi 2014 yilda sof foydasi 29 359 223 ming so'mni tashkil qilgan. Bu esa o'tgan 2013 yilga nisbatan deyarli to'rt barobarga ko'proq bo'lgan. Aynan shuning hisobiga ham ROA ushbu yilda keskin ko'tarilib ketgan. 2015 yilda ham 5.30 ko'effitsent qayd etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016 yilga kelib pastlaydi. Ya'ni 3.77 ko'effitsentga tushib ketadi. Buning asosiy sababini biz aktivlar oshish nisbatining sof foyda oshishiga nisbatan keskin ko'p bo'lishi bilan bog'lashimiz mumkin. 2017 yilda sof foydaning deyarli uch barobarga oshishi natijasida ROA 6.5 ko'effitsentini qayd etgan.

Biz ushbu tahlillar orqali respublikada faoliyat ko'rsatayotgan banklar orasida samarali faoliyat ko'rsatayotganliklarini yuqoridan pastga joylaytirsak quyidagicha jadvalga ega bo'lamiz **(2.4-jadval)**. Xususiy banklar guruhiga kirgan OFB 5 yillik o'rtacha ROA ko'rsatkichi 4.74 ko'effitsentni tashkil etib, mulkchilik shakllari bo'yicha eng yuqori bo'lgan. Keyingi nabatda esa chet el kapitali ishtirokidagi Hamkorbank 2.90 ko'effitsentiga ega bo'lib ikkinchi o'rinni band


qilgan. Uchinchi o‘rinda esa aksiyadorlik tijorat banklari guruhidan bo‘lgan Aloqabank besh yillik uchun o‘rtacha 2.26 koeffitsentga ega bo‘lgan. Mulkchilik shakllari orasida eng yirik aktivlarga ega bo‘lgan davlat banki eng past ko‘rsatkichni qayd etib turibdi.

2.4-jadval

Banklarning ROA reytingi¹⁸

1	OFB	Xususiy	4,74
2	Hamkorbank	Chet el kapitali ishtirokida	2,9
3	Aloqabank	Aksiyadorlik	2,25
4	Xalq bank	Davlat	1.20

Biz samaradorlik ko‘rsatkichlarining ikkinchi asosiy shakli ROE ya’ni kapital qaytimlarini mulkchilik shakllari bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Banklarda ROE ko‘rsatkichi dinamikasi¹⁹

Ushbu 1-rasmda tasvirlangan diagrammaga ko‘ra davlat banki bo‘lgan Xalq banki 2013 va 2014 yillarda o‘rtacha 18.16 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2015 va 2016 yillarda mos ravishda 4.02 va 3.92 koeffitsentni tashkil

¹⁸ Muallif tomonidan banklarning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

¹⁹ Muallif tomonidan banklarning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

qilgan. Ushbu keskin pasayib ketishning asosiy sababi sifatida sof foydaning keskin kamayib ketishi ko‘riladi. Chunki ushbu yillarda kapitalning o‘shishi va aksincha sof foydaning keskin pasayib ketishi natijasida kapital qaytimi keskin pastlagan.

Aksionerlik tijorat banklari guruhidan bo‘lgan Aloqabank sof foydasi va kapitalining bir maromda va o‘zaro yaqin intervalda ko‘payib borishi natijasida uning kapital qaytimi ham barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2013 yilda 17.36 ko‘effitsentni tashkil qilgan bo‘lsa, yillar davomidagi barqaror o‘shish tendensiyasi sababli 2017 yilga kelib 26.63 ko‘effitsentni tashkil qilgan.

Chet el kapitali ishtirokidagi Hamkorbank o‘tgan 2017 yilda ROE ko‘rsatkichi bo‘yicha 78.7 ko‘effitsentni tashkil qilgan. 2014 yilda esa bu ko‘rsatkich 59.12 punktni ko‘rsatgan. Ushbu yilda tushib ketishiga sof foyda va kapital miqdorlarining teng nisbatda emas balki kapitalning sof foydaga nisbatan tezroq o‘shishi sabab bo‘lgan. Oxirgi uch yilda sof foyda va aksiyadorlik kapitalining o‘shish intervallari o‘zaro yaqin bo‘lganlari sababli bankning ROE ko‘rsatkichi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

OFB o‘tgan besh yillikda kapital qaytimi bo‘yicha turlicha ko‘rsatkichlarni qayd etgan. Jumladan 2013 yilda 26.65 tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yilda bu ko‘rsatkich 70 ga yetadi. 2015 yilda ham o‘shish qayd etib, ushbu ko‘rsatkich 93.5 punktga yetdi. 2016 yilda esa deyarli ikki barobarga tushib ketgan. Ya‘ni 58.9 punktni qayd etmoqda. 2017 yilga kelib sof foydani oshishi keskin oshishi hisobiga bu ko‘rsatkich uch barobarga ortadi. Bunda sof foydani o‘shishi 400 foizga aksiyadorlik kapitalining o‘shishi esa 150 foizni tashkil etgan. Sof foydaning nisbatan tezroq oshishi aksiyadorlik kapitalining bir birligiga to‘g‘ri keladigan qaytimni oshirgan.

Biz yuqorida mulkchilik shakliga ko‘ra banklarning ROE ko‘rsatkichini alohida ko‘rib chiqdik. Fikrimizcha ushbu tahlil bilan to‘xtab qolmaslik kerak. O‘zbekistonda banklarning ROE reytingini mulkchilik shakliga ko‘ra shaffof yoritib borish kerak. Biz quyida uning namunasini keltiramiz **(2.5-jadval)**.

Kapital qaytimi bo'yicha banklar reytingi²⁰

N	Bank	Mulkchilik shakli	O'rtacha ROE
1	Hamkorbank	Chet el kapitali ishtirokida	99,11
2	OFB	Xususiy	63,65
3	Aloqabank	Aksiyadorlik	22,80
4	Xalq banki	Davlat	11,06

ROA reytingida birinchi o'rinda Xususiy bank, ikkinchi o'rinda chet el kapitali ishtirokidagi bank turgan edi. Ushbu ROE reytingimizda esa ular faqatgina o'rin almashishgan. Besh yillik o'rtacha natijasiga ko'ra birinchi o'rinda Hamkorbank deyarli 99.1 bilan turibdi. Ikkinchi o'rinni esa OFB 63.6 punkt bilan egallab turibdi. Uchinchi o'rinda Aloqa aksiyadorlik tijora banki 22.8 punkt bilan egallab barqarorlik namoyish etgan bo'lsa, davlat banki bo'lgan Xalq banki atigi 11 punktni band qilgan.

Ushbu yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda asosiy samarali faoliyat olib borayotgan banklar bu xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi. Davlat banklari faoliyati yuqoridagi banklarga nisbatan bir necha barobarga samarasiz.

Tahlillardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bank tizimida xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aktivlari eng yuqori bo'lgan davlat banklarida esa jiddiy islohotlar o'tkazishimiz lozim. Bu boradagi takliflarimizni biz uchinchi bobda keltirib o'tamiz.

2.2 Bank aktivlaridan samarali foydalanish tahlili

²⁰ Muallif tomonidan banklarning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Banklar ham ushbu jarayonlarda o'z faoliyatini yanada rivojlantirishga harakat qilishmoqda. Bu yo'lda ular birinchi navbatda faoliyat samaradorligini barqarorligini ta'minlashga harakat qilishadi. Yuqoridagi rejalarda biz banklarning ROE va ROA kabi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlillarini ko'rib chiqib tegishli xulosalar shakllantirdik.

Ushbu rejada samaradorlikka bilvosita va likvidlikka bevosita ta'sir o'tkazuvchi bank aktivlarini tahlilini ko'rib chiqamiz.

2.6-jadval

Mulkchilik shakllari bo'yicha bank aktivlari taqsimoti²¹

(01.05.2018 holatiga)

N	Bank mulkchilik shakli	Soni	Aktiv qiymati (mlrd sum)	Ulushi %
1	Davlat banklar	3	83 764	46,6
2	Aksiyadorlik tijorat banklari	12	76 256	42,4
3	Xususiy banklar	8	7 817	4,4
4	Chet el kapitali ishtirokidagi banklar	5	11 831	6,6
5	Jami	28	179 670	100

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki O'zbekistonda jami bank aktivlari 179 670 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Banklarning mulkchilik shakllariga kesimiga ko'ra davlat banklari aktivlari jami aktivlarning 83 764 mlrd so'm ini yoki deyarli 47 % ni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinda aksiyadorlik tijorat banklari 76 256 mlrd so'm bilan 42 foiz tashkil qilgan. Keyingi o'rinda esa chet el kapitali

²¹ Muallif tomonidan banklarning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

ishtirokidagi banklar bor yo'g'i 6 foizni tashkil etmoqda. Bugungi xususiylashtirish davrida jami aktivlarimiz ulushida xususiy banklari atigi 4 foizni tashkil etgan. Ushbu jadvaldan shuni aytishimiz mumkinki mamlakat bank tizimida davlat ta'siri katta. Taraqqiyot va raqobatning asosiy omilini yaratib beruvchi chet el kapitali ishtirokidagi va xususiy banklar esa umumiy hisobda atigi 11 foizni tashkil qilmoqda.

Tijorat banklari aktivlarining daromadlarini oshirishning samarali tizimini vujudga keltirish, pul muomalasi va kredit sohasida yuzaga keladigan holatlarning iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan salbiy ta'sirini oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir. Chunki tijorat banklari xo'jalik sub'ektlarining joriy va investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy, birlamchi manbalaridan biridir. Buning uchun esa, bank faoliyati samaradorligini oshirish, uni tahlil qilib borish zarurdir.

Hozirgi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar rejasida yetakchi xorijiy banklar va moliya institutlarida boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o'rganish asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruv usullari, shu jumladan xatarlarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash usullarini takomillashtirish masalasi ham kiritilgan.

Ta'kidlaganimizdek, tijorat banklari aktivlaridan samarali foydalanish, ularning daromadlarini barqaror o'sishini ta'minlashni va umuman bank tizimini mohirona boshqarishni, nazorat qilishni talab etadi.

Oxirgi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlar bozorining keskin rivojlanish davrida kredit muassasalarining samaradorligini baholash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi sharoitda bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish uchun tijorat bankining boshqaruvi bankning haqiqiy moliyaviy holatini baholab borishi lozim. Bundan tashqari tijorat banklarining moliyaviy holati to'g'risida obyektiv ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi

Markaziy bankiga bank faoliyatini nazorat qilish va bank tizimi barqarorligini ta'minlashi uchun, aksionerlarga, omonatchilarga, mijozlarga va bank faoliyatiga be'tibor bo'lmagan shaxslarga kerak bo'ladi.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadlilik, likvidligi va ularning dinamikasini o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bank aktivlar tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushunilib, bankning aktiv va majburiyatlari risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har qanday bank ham o'zining aktivlarini mukammal tarkibiy tuzilishini shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi va uni shakllantirishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari aktivlarning tarkibiy tuzilishida bankning qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatishiga qarab ko'pgina milliy xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi.

Fikrimizcha tijorat banklari faoliyatini samaradorligini tahlil qilishda aktivlar tahlili juda muhim o'rin tutadi. Ushbu tahlillar orqali tijorat banklari samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari biz tijorat bankining daromad keltiruvchi aktivlarini tahlilini olib borish orqali uning samaradorlikka ta'sirini ham batafsil ko'rib chiqishimiz mumkin.

Tijorat banklarning umumiy samaradorlik va aktivlar tahlilini birga olib borish bir qadar qiziq ilmiy xulosalarga kelishimizga sabab bo'ldi. Biz buni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida olib borgan tahlillarimiz orqali ko'rsatib beramiz.

Quyidagi 2.7-jadvalda mulkchilik shakllarining to'rt guruhi berilgan. Xalq banki jami aktivlari 2013 yilda 2 712 302 051 ming so'mni va 2017 yilda 5 598 839 117 ming so'mni tashkil etgan. 2017 yildagi jami aktivlar besh yil oldingi davr bilan taqqoslaganimizda 106.4 foizga ko'proq bo'lgan. Ushbu davr oralig'idagi o'rtacha yillik o'sish tendensiyasi 20.1foizni tashkil qilgan.

2.7-jadval

Bank aktivlaridan samarali foydalanish dinamikasi²²

Yillar		2013 mln.so'm	2014 mln.so'm	2015 mln.so'm	2016 mln.so'm	2017 mln.so'm	2017 yilda 2013 yilga nisbatan o'zgarishi	
Ko'rsatkich	Banklar						mln. so'm	Foizda
Jami aktivlar	X.Bank	2 712 302	3 007 345	3 508 887	4 258 568	5 598 839	2 886 537	106,42
	A.Bank	690 719	1 005 833	1 190 855	1 563 030	2 579 912	1 889 193	273,51
	OFB	277 837	496 962	922 697	1 711 275	3 997 175	3 719 337	1338,6 7
	H.Bank	1 096 439	1 735 270	2 966 964	3 995 970	5 433 750	4 337 311	395,58
Jami aktivlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi (%)	X.Bank	X	10,88	16,68	21,37	31,47	X	x
	A.Bank	X	45,62	18,39	31,25	65,06	X	x
	OFB	X	78,87	85,67	85,46	133,58	X	x
	H.Bank	X	58,26	70,98	34,68	35,98	X	x
Daromad keltiruvchi aktivlar	X.Bank	2 291 352	2 620 093	3 001 802	3 800 615	4 670 701	2 379 348	103,84
	A.Bank	485 742	716 504	934 831	1 085 963	1 618 838	1 133 095	233,27
	OFB	117 834	248 482	527 608	960 922	2 383 323	2 265 489	1922,6 1
	H.Bank	640 913	1 154 909	1 636 721	2 405 841	3 134 362	2 493 448	389,05
Daromad keltiruvchi aktivlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi (%)	X.Bank	0	14,35	14,57	26,61	22,89	X	x
	A.Bank	0	47,51	30,47	16,17	49,07	X	x
	OFB	0	110,88	112,33	82,13	148,02	X	x
	H.Bank	0	80,20	41,72	46,99	30,28	X	x
Daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi (%)	X.Bank	84,48	87,12	85,55	89,25	83,42	-1,06	-1,25
	A.Bank	70,32	71,23	78,50	69,48	62,75	-7,58	-10,77
	OFB	42,41	50,00	57,18	56,15	59,63	17,21	40,59
	H.Bank	58,45	66,56	55,16	60,21	57,68	-0,77	-1,32

Bunda: X-Xalq, A-Aloqa, H-Hamkorbank

Aloqabank jami aktivlari 2013 yilda 690 719 632 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa 2014 yil oxiriga kelib bu summa milliarddan o'tadi va 1 005 833 771 ming so'mni tashkil qiladi. 2017 yilga kelib ushbu summa 2 579 912 939 ming so'mni tashkil qiladi. Bunda 2017 yildagi jami aktivlar 2013 yilgi miqdoriga nisbatan esa 273.51 foizga ko'p bo'lgan. Ushbu holatda Aloqabank aktivlari o'sish tendensiyasi Xalq bankining xuddi shu ko'rsatkichiga taqqoslaganda ikki barobar ko'proq ya'ni 40 foizni tashkil qilgan.

²² ATB "Aloqabank", ATB "Xalqbank", XATB "OFB" va chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Chet el kapitali ishtirokidagi Hamkorbankda esa yillik o'sish tendensiyasi 50 foizni tashkil qilgan. 2017 yilda 5 433 750 983 ming so'm bo'lgan bo'lsa 2013 yilda undan deyarli 4 337 311 004 ming so'mga kamroq summa ya'ni 1 096 439 982 ming so'mni tashkil qilgan. Bunda o'tgan besh yilga nisbatan o'sish besh barobar yuqori bo'lgan.

Eng yuqori o'sish tendensiyasiga Orient Finans bank ega bo'lgan. Bank aktivlari 2013 yilning dekabr oyiga 277 837 668 ming so'mni tashkil qilgan. 2017 yilning 31 dekabr sanasiga ushbu ko'rsatkich 3 991 175 622 ming so'mni tashkil qilmoqda. 2017 yilda 2013 yilga nisbatan o'sish 13 barobar yuqoriroq bo'lgan. Bunda yillik o'sish tendensiyasi o'rtacha 95 foizdan bo'lgan.

Tijorat banklarining aktivlari tarkibida muhim elementlar bu albatta daromad keltiruvchi aktivlar hisoblanadi. Jadval ma'lumotlariga qaraganda Xalq bankining daromad keltiruvchi aktivlari o'rtacha yillik o'sish tendensiyasi 24.75 foizni tashkil qilgan. Daromad keltiruvchi aktivlar 2013 yilda 2 291 352 466 ming so'mni, 2014 yilda 2 620 093 100 ming so'mni, 2015 yilda 3 001 802 565 ming so'mni, 2016 yilda 3 800 615 054 ming so'mni, 2017 yilda 4 670 701 450 ming so'mni tashkil qilgan. 2017 yilda 2013 yilga nisbatan o'zgarish ikki barobardan ziyodroq yoki 103,84 foizga oshgan.

Aksionerlik tijorat Aloqabanki daromad keltiruvchi aktivlari o'tgan besh yil ichida uch barobarga yaqin o'sishni qayd etgan. 2013 yilda 485 742 832 ming so'mga teng bo'lgan. Ketma ket ikki yil 14.4 foizdan oshib 2015 yilda 934 831 929 ming so'mni tashkil qilgan. 2016 yilga kelib bu ko'rsatkich 1 618 838 773 ming so'mni tashkil qiladi. 2017 yilda esa daromad keltiruvchi aktivlar 2013 yilga nisbatan 233 foizlik o'sishni qayd etib 1 133 095 941 ming so'mni tashkil qilgan.

Chet el kapitali ishtirokidagi Hamkorbank daromad keltiruvchi aktivlari o'sish dinamikasida keskin burilishlar ko'p bo'lgan. 2013 yil daromad keltiruvchi aktivlari 640 913 534 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilda o'sish 80 foizga teng bo'lgan va ushbu qiymat 1 154 909 630 ming so'mga teng bo'lgan. Keyingi ikki yilda o'sish mos ravishda 41.72 va 47 foizni tashkil qilgan va 2016

yilda umumiy daromad keltiruvchi aktivlar 2 405 841 790 ming soʻmga teng boʻlgan. 2017 yilda bu koʻrsatkich 30 foizga oshib 3 134 362 340 ming soʻmni tashkil qilgan. Umuman olganda bankning daromad keltiruvchi aktivlar 2017 yilda 2013 yilga nisbatan toʻrt barobarga yuqoriroq boʻlgan.

Daromad keltiruvchi aktivlar oʻsish tendensiyasini eng yuqori boʻlgan bank turi bu xususiy OFB banki qayd etgan. OFB 2013 yilda umumiy daromad keltiruvchi aktivlari summasi 117 834 041 ming soʻmni tashkil qilgan. Shundan soʻng oʻrtacha 113 foizlik yillik oʻsish tendensiyasi sababli OFB ning daromad keltiruvchi aktivlari summasi 2017 yil oxiriga kelib 2 265 489 324 ming soʻmni tashkil qilgan. Bu esa 2013 yilga nisbatan 20 barobar yuqori koʻrsatkichdir.

Biz jadvalning oxirgi punktida bank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlarni ulushini koʻrib chiqamiz. Jadvalga koʻra eng qiziq holat Xalq banki bilan bogʻliq. Chunki samaradorlik koʻrsatkichlari boʻyicha eng past natijani qayd etib turgan bank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar oʻrtacha 86 foizni tashkil qilib kelgan. Bu esa qolgan banklarga nisbatan eng yuqori koʻrsatkichdir.

Aksionerlik tijorat banklari guruhidan boʻlgan Aloqabank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar 2013-2015 yillarda oʻrtacha 73 foizni, 2016-2017 yillarda mos ravishda 69.5 va 62.7 foizni tashkil qilgan. Bu koʻrsatkich bilan bank daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlar tarkibida ulushi boʻyicha ikkinchi oʻrinni qayd etmoqda.

Chet el kapitali ishtirokidagi Hamkorbank bu koʻrsatkich boʻyicha uchinchi oʻrinni qayd etmoqda. 2013-2017 yillar oraligʻida daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlar tarkibida oʻrtacha 59 foizni tashkil qilgan.

Yana bir qiziq holat samaradorlik koʻrsatkichlari boʻyicha yuqori oʻrinlarni qayd etgan xususiy banklar guruhidan boʻlgan OFB ning umumiy aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlari ulushi qolgan banklar koʻrsatkichlariga nisbatan eng past natijani qayd etgan. Yaʼni banking daromad keltiruvchi aktivlari umumiy aktivlar tarkibida 2013-2017 yillar davomida oʻrtacha 53 foiz ulushga egalik qilgan.

Biz yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilishimiz mumkin. Daromad keltiruvchi aktivlarning aktivlar ulushida yuqori ulushga ega ekanligi bank samaradorligini oshirishda katta rol o'ynamaydi.

Fikrimizcha ushbu holatda asosiy yechim sifatida mulkchilik shakliga ko'ra boshqaruv strategiyalari katta rol o'ynashi asosiy sabab bo'la oladi.

2.3. Tijorat banklari likvidligi - ularning samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida va uning amaliyotdagi holatini tahlili

Biz yuqorida bank faoliyatini samaradorligini olib borishda uning mulkchilik shakllariga ko'ra solishtirma tahlillar olib bordik. ROA va ROE kabi samaradorlik ko'rsatkichlarini hamda bank aktivlari tahlillarini olib bordik. Ammo ROA va ROE bu bankning umumiy samaradorligini ko'rsatib beradi xolos. Fikrimizcha tijorat bankining samaradorligiga bevosita va bilvosita omillar eng asosiy o'rin tutadi. Ya'ni samaradorlikka erishish uchun qilingan ishlar strategiyasi muhim o'rin tutadi.

Likvidlik ham biz nazarda tutayotgan strategiya'ning eng asosiy muhim qismlaridan biridir. Agar bank likvidlilik bo'yicha to'g'ri siyosat olib borsa bu uning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha likvidlilik siyosatining noto'g'ri olib borilishi bank xarajatlarini oshirib daromadlarini kamaytirishi natijasida bu bilvosita samaradorlikka ta'sir o'tkazadi.

Tijorat bankining likvidligi tushunchasi - bu bankning barcha mijozlari oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining yetarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlaridagi mablag'larning vaqt oralig'ida muvofiqligi bilan aniqlanadi.

Biz tijorat banklari umumiy solishtirma tahlillarni likvidlilik bo'yicha olib boraganda asosiy e'tibor qaratishimi kerak bo'lgan narsa bu likvidlilikning xususiyatlaridir.

Fikrimizcha asosiy xususiyat bu -tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o'rtasidagi doimiy sub'ektiv mutanosiblikni saqlashdan iborat ekanligidir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mablag'lardir. Bu mutanosiblik esa, yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatliligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning ahvoli qay darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatliligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining muvozanatliligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank faoliyati tizimida, eng avvalo, banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatliligi ko'rib chiqiladi, chunki, foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik kengroq, ya'ni jamiyatning ko'pchilik qatlami manfaatlarini ko'zlaydi. Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir.

Tijorat banki faoliyati davomida uning aksionerlari bo'lgan keng doiradagi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning mulk va boshqa iqtisodiy manfaatlarini ko'zda tutilgan uchun tijorat banki faoliyatini yuritishga litsenziya bergan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki banklar faoliyatini barqarorligini iqtisodiy hamda ma'muriy usullar yordamida boshqaradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta'rif berilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda to'lovga qobiliyatlilik likvidlikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko'riladi. Keng kategoriya sifatida o'rganilganda to'lovga qobiliyatlilik ichki va tashqi omillar doirasida ko'rib chiqiladi, likvidlik esa, faqat ichki omillar doirasida qoraladi.

Ba'zi qarashlarga ko'ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi. Tijorat banklarining likvidliligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim. To'lovga layoqatsizlik esa, faqat balans likvidliligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liqdir.

1983 yilda qabul qilingan va 1993 yilda o'zgartirishlar kiritilgan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan Bazel bitimi bank likvidligi bo'yicha umumiy qoidalarni belgilab berdi. Ushbu bitimga muvofiq, likvidlikni tahlil qilish banklarning o'z majburiyatlarini muddatidan va zarar ko'rmagan holda bajarish qobiliyatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Banklarning likvidligi hamda to'lovga qobiliyatligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos hisoblanadi. Bazel bitimi standartida ko'plab davlatlar o'z banki tizimi uchun likvidlilik me'yorlarini ishlab chiqqan.

2.8-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi likvidlik ko'rsatkichlari me'yorlari²³

Ko'rsatkichlar nomi
Joriy likvidlilik me'yor (<i>min. talab 30%</i>)
Likvidlilikni qoplash me'yor (<i>min. talab 100%</i>)
Sof barqaror moliyalashtirish me'yor (<i>min. talab 100%</i>)
Lahzali likvidlilik me'yor (<i>min. talab 20%</i>)

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida likvidlilik bo'yicha alohida yo'nalish mavjud. unga ko'ra:

- yuqori likvidli aktivlar - min. talab 30%
- likvidlilikni qoplash me'yor - min. talab 100%
- sof barqaror moliyalashtirish me'yor - min. talab 100%

²³ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

- lahzali likvidlilik me'yori - min. talab 20%

Yuqoridagi 2.6-jadval ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi banklarning likvidlilik ko'rsatkichlari bo'yicha 2018-2017 yillar uchun umumiy holatlari berilgan. Unga ko'ra joriy likvidlilik me'yori belgilangan 30 foizdan har ikkala yil uchun ham juda yuqori bo'lgan. Ammo 2018 yil holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 foizga pasaygan. Likvidlilikni qoplash me'yori ham mos ravishda 1.5 va 2 barobar yuqori bo'lgan. Sof barqarorlashtirish me'yoriga bo'lgan talab ham 100 foiz belgilangan. Uning bajarilishi 2017 yilga kelib 96.7 foizga bajarilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 107.6 foizga bajarilgan. Lahzali likvidlik me'yoriga qo'yilgan talab 20 foiz etib belgilangan. Bu esa 2018 yilda deyarli 50 foizga bajarilgan. Ushbu jadvalga ko'ra umumiy xulosamiz shuki O'zbekistonda bank likvidliliqi bo'yicha qo'yilgan minimal talablar barchasi bajarib kelinmoqda. Shu o'rinda aytishimiz kerakki xalqaro amaliyot O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga nisbatan biroz pastroq me'yorlar belgilagan. Demak banklarimiz xalqaro standartlar asosida ham o'z faoliyatlarini olib borayotganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Umuman olganda tijorat banklarining likvidligi quyidagi koeffitsentlar bilan ifodalanadi:

- lahzali likvidlik koeffitsenti (LLK);
- joriy likvidlik koeffitsenti (JLK);
- qisqa muddatli likvidlik koeffitsenti (QMLK).

Lahzali likvidlik koeffitsenti tijorat banklari yuqori likvidli mablag'larining (bularga bank kassasidagi naqd pul mablag'lari va korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari kiradi) joriy majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Lahzali likvidlik koeffitsentini tijorat banklari har kuni tahlil qilib borishlari lozim. Ushbu koeffitsentning minimal miqdori 0,25 deb qabul qilingan.

$$LLK = \frac{BKNPM + KHPM}{JM} \quad (2.1)$$

Bu yerda:

LLK - Lahzali likvidlik koeffitsenti;

BKNPM - Bank kassasidagi naqd pul mablag'lari;

KHPM - Korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari;

JM - Joriy majburiyatlar.

Joriy likvidlik koeffitsenti joriy aktivlarning (bankning muddati bir oygacha bo'lgan barcha likvid aktivlari, shuni ta'kidlash lozimki, bir marta bo'lsada muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan mustasno) talab qilib olinguncha omonatlar va ijro etish muddati bir oygacha bo'lgan majburiyatlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy mazmuniga ko'ra tijorat banklarining joriy aktivlari hisobidan joriy majburiyatlarini qay darajada qoplay olishini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olinguncha omonatlar, joriy oyda to'lanishi lozim bo'lgan (olingan) kreditlar va boshqa shu kabi majburiyatlar kiradi. Joriy likvidlik koeffitsentining minimal miqdori 0,3 deb qabul qilingan.

(2.2)

$$JLK = \frac{JA}{TQOO + MBOBM}$$

Bu yerda:

JLK - Joriy likvidlik koeffitsenti;

JA - Joriy aktivlar;

TQOO - Talab qilib olinguncha omonatlar;

MBOBM - Muddati bir oygacha bo'lgan majburiyatlar.

Qisqa muddatli likvidlik koeffitsenti muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank aktivlarini muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank majburiyatlari va bank kapitaliga nisbati bilan aniqlanadi.

$$QMLK = \frac{MBOBYBBA}{MBOBYBBM + BK} \quad (2.3)$$

Bu yerda:

QMLK - qisqa muddatli likvidlik koeffitsenti;

MBOBYBBA – Muddati bir oydan bir yilgacha bo‘lgan bank aktivlari;

MBOBYBBM - Muddati bir oydan bir yilgacha bo‘lgan bank majburiyatlari;

BK - bank kapitali.

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta’minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon banki materiallariga ko‘ra to‘lovga qobiliyatlilik o‘z kapitalining ijobiy kattaliliga bog‘liqdir. Bunga muvofiq to‘lovga qobiliyatlilik bank kapitaliga asoslanadi, ya’ni bank kapitali majburiyatlarni to‘lash kafolatiga ega fond hisoblanadi. Umumiy likvidlilikni baholashda tijorat banklari asosiy likvidlilik, joriy likvidlilik va istiqbolli likvidlilikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimidagi likvidlik ko‘rsatkichlari aks etgan quyidagi 2.9-jadvalga asosan yuqori likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbatida o‘shish kuzatilgan. Unga ko‘ra 2016 yil oxirida 20.47 foizni tashkil etgan ko‘rsatkich 2017 yilning oxiriga kelib 23 foizga yetgan. O‘shish 1.5 foizni tashkil qilgan. Jami likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbatida ham o‘shish kuzatilgan ammo birinchi ko‘rsatkichimizga nisbatan pastroq. Unga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 2016 yilda 24.03 foizni tashkil qilgan bo‘lsa 2017 yilda 0.11 foizga o‘shib 24.14 foizni qayd etgan.

2.9-jadval

Tijorat banklarining ba'zi moliyaviy bardoshlilik ko'rsatkichlari²⁴

Likvidlilik	2016-yil	2017-yil
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati	20,47%	22,91%
Likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbati	24,03%	24,14%
Yuqori likvidli aktivlarning talab qilib olinguncha majburiyatlarga nisbati	61,34%	91,73%
Likvid aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati	63,21%	84,07%
Mijozlar mablag'larining jami ssudalarga nisbati	81,54%	63,59%
Joriy likvidlilik me'yori	66,75%	87,78%
Likvidlilikni qoplash me'yori	163,17%	213,68%
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori	99,31%	110,71%

Yuqori likvid aktivlarning talab qilib olinguncha majburiyatlarga nisbatida keskin o'sish qayd etilgan. Jadvalga ko'rsa ushbu ko'rsatkich 2016 yilda 61.34 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilda u 91.73 foizga yetgan. O'sish 30 foizdan yuqori bo'lgan. Buni biz yuqori likvid aktivlarning talab qilib olinguncha majburiyatlarga nisbatan yuqoriroq o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Likvid aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati 2016 yilda 63 foizni tashkil qilgan. 2017 yilda esa 84.07 foizni tashkil qilgan. Buni ham biz aktivlarning majburiyatlarga nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlasak bo'ladi. Mijozlar mablag'larining jami ssudalarga nisbati esa 81.54 foizdan 63.59 foizga tushgan.

Endi esa asosiy uch ko'rsatkichni ko'rib chiqamiz. Joriy likvidlilik me'yori 66.75 foizdan 87.78 foizga oshgan. Minimal talab esa 30% dan kam bo'lmaslik kerak. Bizining ko'rsatkich esa har ikkala yilda ikki barobardan ziyod bo'lgan. Likvidlilikni qoplash me'yori 163.17 foizdan 213.68 foizga o'zgargan. Ushbu ko'rsatkichga qo'yilgan minimal talab 100 foiz. Bizning ko'rsatkichimiz esa mos

²⁴ "Ahbor-reyting" agentligining har choraklik byulleteni №50, Fevral 2018 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

ravishda o'tgan ikki yilda 63 va 113 foizga yuqori bo'lgan. Sof barqaror moliyalash me'yoriga qo'yilgan minimal talab 100 fozi bo'lgan holda 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 99.31 foizni tashkil qilgan. 2017 yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich belgilangan talabdan ortiqni tashkil qilgan. Ya'ni 110 fozini tashkil qildi.

Yuqoridagi tahlillar bo'yicha umumiy xulosa shuki mamlakatdagi bank tizimi likvidlik ko'rsatkichlari deyarli barcha talablar doirasida natija ko'rsatgan.

Bank zarur bo'lganda yoki moliyaviy bozorda qarzlar olish yoki banklararo bozordan kreditlar olish hisobiga likvidlikni ta'minlashi mumkin. Ba'zi hollarda tijorat banki balansi likvid bo'la turib, mijozlar talablari bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun e'tiborni balans likvidligiga emas, ko'proq bank likvidligiga qaratish o'rinli bo'ladi. Tijorat banki barqaror holatining asosi bo'lib, uning moliyaviy barqarorligi xizmat qiladi. Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bu esa, samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining mustahkamlanishiga imkon beradi. Shuning uchun ham banklar o'zlarining likvidlik ko'rsatkichlarini normal holatda ushlab turishga harakat qilishadi.

II bob bo'yicha xulosa

Ushbu yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki mamlakatimizda asosiy samarali faoliyat olib borayotgan banklar bu xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarda yuqori samaradorlik ko'rsatkichga ega. Davlat banklari qolgan mulkchilik shakllaridagi banklarga nisbatan eng samarasiz faoliyat olib borishadi. Ularning faoliyati boshqa banklarga nisbatan bir necha barobarga samarasiz.

Tahlillardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki bank tizimida xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aktivlari eng yuqori bo‘lgan davlat banklarida esa jiddiy islohotlar o‘tkazishimiz lozim.

Garchi davlat ulushi mavjud bo‘lsada, aksionerlik tijorat banklari barqaror o‘sish tendensiyasiga egadir. Fikrimizcha aksionerlik tijorat banklarining ulushidan davlat ulushlarini olib tashlash kerak. Shunda biz bank tizimida keskin raqobat muhitini yaratishimiz mumkin.

Bundan tashqari tijorat banklari aktivlar samaradorligini oshirishga harakat qilishlari lozim. Chunki aktivlar bank foydasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib samaradorlikni oshirishi yoki uni pasaytirishi mumkin.

Biz tijorat banklari umumiy solishtirma tahlillarni likvidlilik bo‘yicha olib borganda asosiy e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan narsa bu likvidlilikning xususiyatlaridir. Fikrimizcha asosiy xususiyat bu -tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o‘rtasidagi doimiy sub’ektiv mutanosiblikni saqlashdan iborat ekanligidir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag‘lar va joylashtirilgan mablag‘lardir. Bu mutanosiblik esa, yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

III BOB. TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI ANIQLASH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

3.1 Tijorat banklari samaradorligini aniqlash va uni oshirish bilan bog‘liq muammolar hamda ularning yechimlari

Tijorat banklari faoliyati samadorligi bu uning butun faoliyatining qanday olib borilayotganligiga baho beruvchi yakuniy bahodir. Ushbu bahoning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi bankning kelgusi faoliyatini yo‘nalishini bevosita belgilab beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqoridagi boblarda samaradorlik bilan bog‘liq nazariyalar va amaliy tahlillar orqali tegishli xulosalar shakllantirdik. Ammo ushbu xulosalarga ko‘ra tijorat bankining samaradorligini aniqlash va uni oshirish bilan bog‘liq ikki xil toifali muammolar mavjud. Birinchi toifa bu bankning samaradorligi va uning tahliliga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiluvchi toifa bo‘lsa, ikkinchi bankning umumiy iqtisodiy va siyosiy munosabatlari bilan bog‘liq umumiy toifaga ega muammolardir. Ikkala toifa bo‘yicha ham yechimlarning to‘g‘ri topilishi mos ravishda bank samaradorligi va uning tahliliga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Birinchi toifada bir qancha muammolar bor:

1. Tijorat banklari faoliyatini samaradorligini aniqlashda asosiy muammo bu uni hisoblashda ta’sir etuvchi ba’zi omillarning e’tibordan va hisobdan chetda qolishidir. Chunki fikrimizcha barcha omillarning to‘g‘ri hisobga olinmasligi samaradorlikning hisbolashda chalkashliklar yuzaga keltirib chiqadi.

2. Repsublika hududida ekoneometrika fanining keng o‘rgatilmasligi. Chunki ekonometrika bu samaradorlikni va unga omillar ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. Ming afsuski bugungi kunda bundan ko‘chilikning xabari ham yo‘q.

3. Samaradorlikni oshirishda eng muhim narsa bu boshqaruv va mulkchilik shakli. Bizning bank tizimimizda esa ba’zi bir banklardan boshqa

barcha banklarimiz ushbu jihatlarni unutib qo'yishmoqda, yoki e'tiborga olishmayapti xolos.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida biz ba'zi takliflarimizni keltirib o'tamiz. Samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarning to'g'ri hisobga olinmasligi uning noto'g'ri hisoblanishiga olib keladi.

Fikrimizcha respublika bank tizimida samaradorlikni aniqlashda quyidagi omillarning ham ta'sirini o'rganib chiqishimiz lozim. :

- bank faoliyat ko'lami
- bank boshqaruvi
- bank mulkchilik shakli
- aktivlar samaradorligi

Tijorat banklari aktivlaridan samarali foydalanish darajasi va uning auditini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- tijorat banklari aktivlarining likvidliligi va daromadliligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning optimal darajasini yuzaga keltirish;
- tijorat banklarining kreditlardan olinadigan foizli daromadlarining yalpi daromad hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash maqsadida: kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini pasayishiga yo'l qo'ymaslik, kreditlar foiz stavkalarining keskin tebranishning oldini olish, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ta'minlash;
- tijorat banklari foizli daromadlarini audit qilish jarayonida foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining pasayish sabablari aniqlanishi va ularni bartaraf qilish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Aynan ushbu uch omilni hisobga olish bankning samaradorligini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bankning boshqaruv strategik modelini ishlab chiqish lozim. Mulkchilik shakli va boshqaruv shakllarini o'zaro bog'liq hisoblanadi. Mulkchilik shakllarini biz kapital konsentratsiyasi va mulkdorlarning

identifikatsiyasiga ko'ra ajratishimiz mumkin. Mulkdorlik konsentratsiyasi va mulkdor identifikatori asosan ikkita mulkka asoslangan tuzilmalardir. Mulkchilik konsentratsiyasi eng katta aksiyadorlar ovoz berish huquqi va shuningdek, ikkinchi va uchinchi yirik aksiyadorlarning ovoz berish huquqlari bilan baholanadigan ovoz berish huquqlarining konsentratsiya darajasini tavsiflaydi. Mulkchilik konsentratsiyasi miqdori eng katta aksiyadorning boshqalarga nisbatan tafovut darajasi bilan taqqoslanishi mumkin. Mulkdor identifikatori eng katta aksiyadorning turiga qarab o'lchanadi; chet el, mahalliy yoki davlat bo'lishi mumkin. Ya'ni, agar bank kapitalida chet el kapitali ko'proq bo'lsa unda identifikator chet ellik, davlat ulushi ko'p bo'lsa unda davlat banki hisoblanadi.

Aksiyadorlar ovoz berish huquqining tafovuti ularga o'z kapitalini minimal darajada kam jalb qilish orqali nazoratni qo'lga kiritishga va boshqarishga imkon beradi. Mulkchilik konsentratsiyasining va moliyaviy samaradorlik biri biriga o'zaro teskaridir. Ya'ni firmaning mulkchilik konsentratsiyasi ortib borayotganligi tufayli moliyaviy samaradorligi pasayib boradi. Buning sababi shundaki, mulkchilik konsentratsiyasining oshishi bankning bozor likvidligini kamaytiradi, shuningdek, imkoniyatlarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi, natijada firma kapitalining qiymatini oshiradi.

Yuqori malakali menejerlar tomonidan ko'proq kapitalga egalik qilinishi faoliyatni ko'proq rag'batlantiradi, chunki bu holat monetar rag'bat sifatida ishlaganligi sababli bank samaradorligini kuchaytiradi. Fikrimizcha katta aksiyadorlik kapitali ulushi egasi bo'lgan rahbarlarni juda boy va kuchli ekanliklari bank faoliyatiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular yetarlicha boy bo'lganliklari sababli foydani maksimallashtirishga qiziqmaydilar va bu bilan firmaning moliyaviy ko'rsatkichini pasaytiradi.

Ammo, bizning fikrimizcha menejerlarning haddan tashqari ko'p aksiyalarga ega bo'lishi moliyaviy samaradorlikni tushirishi mumkin, chunki haddan tashqari katta ulushga ega menejerlar ko'p kuch va vakolatlarga ega bo'lishadi bu esa ularning boshqa aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olmay

qo'yishlariga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytilganidek ular foydani maksimallashtirishga intilmasliklari mumkin, ammo, bozor ulushlarini oshirishni va texnologik rahbarlikni kengaytirishni maqsad qilishadi. Ko'plab aksiyadorlari mavjud bo'lgan banklar samaradorlikni oshiradigan bank boshqaruv nazorati va monitoringni yaxshi tashkil etgan bo'ladi.

Fikrimizcha yurtimizdagi bank sohasi yo'nalishida mavjud adabiyotlar nazariyasiga mulkchilik strukturasi va konsentratsiyasining bank faoliyati samaradorligi bilan o'zaro bog'liqlik nazariyasini qo'shish lozim. Chunki ayni vaqtga kelib mamlakat bank tizimining deyarli 80%da davlat ulushi mavjud bo'lgan bir sharoitda biz chet el kapitali ishtirokidagi va xususiy banklarni sonini va ularning mamlakat YaIM da hissasini oshirishimiz eng to'g'ri yo'l bo'ladi. Yuqoridagi o'zaro bog'liqlik nazariyasini kiritishimiz esa kelgusida bank faoliyatini mulkchilik shaklida chet el kapitali ishtirokidagi va xususiy banklarni ko'paytirishga imkon beradi.

Ma'lumki har qanday rivojlanayotgan mamlakatda ham siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud bo'ladi, bu esa ma'lum ma'noda bank faoliyatining rivojiga to'siq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham banklar ushbu to'siqlarni chetlab o'tishga yoki ularning ta'sirini kamaytirishga yordam beruvchi o'zlarining rivojlanish modellarini ishlab chiqishlari lozim bo'ladi. O'zbekistonda ham banklar o'zlarining rivojlanish modellarini ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu jarayonda diversifikatsiyaga katta e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki moliyaviy samaradorlik diversifikatsiya bilan proporsional bog'liqlikka ega bo'lib agar diversifiaksiya salbiy natija bersa samaradorlik tushib ketadi va aksincha. Diversifikatsiya orqali pasayishi ma'lum bir guruh diversifikatsiya belgilangan dastlabki darajasidan oshib ketgan taqdirda tezlashib ketadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda faoliyat olib borayotgan banklar ham o'zlariga yangi rivojlanish modellarini yaratishlari lozim bo'ladi. Masalan chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" va "Aloqabank" aksionerlik tijorat banklari o'zlarining zamonaviy rivojlanish modellariga ega. Birgina misol sifatida ularning

marketing yoʻnalishida oʻziga xos yoʻnalishga ega ekanligini aytib oʻtishimiz mumkin.

Shuningdek, Oʻzbekiston moliya bozorida yangi boʻlgan chet el kapitali ishtirokidagi “Ziraat bank”ni ham oʻzining rivojlanish modeliga ega ekanligini keltirib oʻtishimiz mumkin. Maʼlumki boshqa mamlakatlarda filial va shoʻbalar sifatida tashkil qilinadigan banklar oʻz rivojlanish modellarini bosh bank (parent bank) tavsiyasi asosida ishlab chiqadi. “Ziraat bank” nafaqat Turkiyada balki butun jaxon moliya bozorida ham oʻz oʻrniga ega bank hisoblanadi.

Fikrimizcha mamlakatimiz bank tizimida chet el kapitali ishtirokidagi banklarni oshirish lozim. Chunki ularning kirib kelishi bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchayishiga olib keluvchi asosiy omil sifatida rol oʻynaydi.

Davlat banklari mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan boʻlib, ular samarali moliya bozorlarini rivojlantirishga toʻsqinlik qiladigan samarasiz institutlarga aylanadi. Davlatga qarashli koʻplab banklar boʻlgan mamlakatlarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning oʻsishi, resurslarni samarasiz taqsimlash, yuqori foiz stavkalari va kredit olishning kamligi mavjud.

Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy banklarning tashkil etilishi moliyaviy institutlarning kapitallashuvi va raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi, bu esa oʻz navbatida mahalliy banklar tomonidan nusxalanib, moliyaviy tizimning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Davlatga qarashli banklarni xususiylashtirish ham moliyaviy rivojlanishga olib keladi, lekin fikrimizcha qisman xususiylashtirish boshqaruvning muammolarini hal etish uchun yetarli emas.

Banklarning aksiyadorlari va ularning boshqaruvchilari oʻrtasida doimo ham turli kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Chunki bank boshqaruvchilari bankni faoliyatini kengaytirish ishchi xodimlarni ragʻbatlantirish kabi turli rivojlantirish mablagʻlarini sarf qilishni istashsa, aksincha aksiyadorlar esa oʻzlarining foydalarini ushlab qolishga koʻproq harakat qilishadi. Natijada ikki oʻrtada

ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Mulkchilik boshqaruvi esa ular orasidagi manfaatlarni bir chiziqqa joylashtiradi, natijada umumiy tomonlar xarajatlarini qisqartirishga muvaffaq bo'lishadi. Mulkdorlik konsentratsiyasi ham aksiyadorlarning nazorat jarayonlarida faol rol o'ynashlari orqali tomonlar xarajatlarini qisqarishiga sabab bo'ladi. Ammo bu ularning kapital investitsiyalari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ya'ni investor qancha ko'p aksiyalarga egalik qiladigan bo'lsa ular monitoring jarayonlarida faol qatnashishga va bu orqali o'zlarining investitsiyalarini himoya qilishlariga shuncha ko'proq harakat qilishadi. Ya'ni xulosa qiladigan bo'lsak, investorlar bankka kirgan kapitallari miqdorida bo'yicha uning faoliyatida qatnashishadi. Biz buni aksiyadorlarning yillik yig'ilishlari va ularning bank boshqaruvchi va raislaridan hisobotlar qabul qilish jarayonlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Biz shuni aniq ayta olishimiz mumkinki, agar aksiyador va investorlar bank faoliyatini nazorat qilishmasa, u holda bank menejerlari faqatgina foydani maksimallashtirish ortidan quvishadi bu esa bank faoliyatini xavf xatar ostiga qo'yishi mumkin. Aksiyador va investorlar nazorati ostida faoliyat olib boradigan banklar menejerlar mustaqil boshqaradigan banklarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Biz buni sodda tilda aytadigan bo'lsak xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar samaraliroq faoliyat yuritishadi.

Ushbu nazariyaga ko'ra menejerlar aksiyadorlar tomonidan qonunchilik, vakolat va favqulodda olib boriladigan bosim va harakatlarga javob berishadi. Fikrimizcha aksiyadorlar bank resurslari va umumiy mehanizmi bo'yicha strategik rivojlanishlarga ma'sul bo'lgan top menejerlarga katta ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, davlat ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki hukumat bank boshqaruvchilari faoliyatida strategik rivojlanish uchun asosiy manba bo'ladigan bozorlarning mulk huquqlarini nazorat qila oladi. Ammo shu bilan birga hukumatning aralashuvi shaffoflik (erkin bozor) va nazorat (yopiq bozor) darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatdagi mulklarda davlat hissasi ko'p bo'lgan joylarda ushbu holat tez yuzaga chiqadi. Fikrimizcha O'zbekistonda ushbu

salbiy ta'sir oldini olish uchun xususiylaytirish su'ratini oshirishimiz lozim bo'ladi. Ayni vaqtda O'zbekiston Havo yo'llari, Temir yo'l kabi katta kompaniyalarda va eng achinarlisi banklarimizning katta qismida davlat egalik ulushi mavjud.

Davlat egalik qiladigan banklar tomonidan olib boriladigan siyosat va bozor yondashuvlari asosan ma'lum bir davrdagi davlatning strategiyalarinigina amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan Aloqabank, Xalq banki hukumat siyosatini qabul qilishga majbur, chunki unda davlat ulushi mavjud. Biz nazarda tutayotgan masala imtiyozli kreditlar bilan bog'liq. Bunda ma'lum toifa odamlar qarshi chiqishi mumkin. Imtiyozli kreditlar bankning hisobidan emas, balki fondlar hisobiga amalga oshirilishini nazarda tutib. Ammo biz buning bankka qay darajada zarar keltirishini ko'rsatishga harakat qilib ko'ramiz:

1. O'rta daromadli aholini oshirish va tadbirkorlikni ko'paytiish uchun ma'lum fondlar tomonidan 8mlrd so'm ajratildi. Imtiyozli masalan 3 foizli. O'rtacha eng kam ish haqining 50 baravarigacha bir kishiga berilsin. Shunda 8 mlrd so'mni biz odam boshiga 8 620 000 so'mdan beriladi. Demak shunda o'rtacha 928ta odamga kredit beriladi. Bank xodimlari o'zining barcha ishlarini to'xtatadi va ushbu 928 ta fuqaroning ishi bilan shug'ullanadi.

2. Kredit talablari esa odatdagidanda ko'ra ko'proq mahalla maxsus biriktirilgan sektor tavsiyanomasi va shu kabi bir qancha hujjatlar. Kafillar.

3. Monitoring. Har bir berilgan kreditning maqsadlilikini tekshirish uchun doimiy monitoring olib borishga kim boradi? Albatta bank xodimi!

4. Endi eng ayanchli tomonini ko'ramiz. Kredit qaytishi. Bu bank xodimlarini o'z ishlarini to'xtatgan holda fondning pulini joyiga qo'yish uchun yugurishadi. Albatta biz ushbu jarayonga faqatgina bank xodimi sifatida obyektiv qaradik. Fikrimiz shuki davlat ulushini yuqori bo'lishi bankning hukumat siyosati bilan hisoblashib ish yuritishiga majbur qiladigan omil sifatida maydonga chiqadi.

Fikrimizcha bank tizimini yanada liberallashtirish lozim. Shunda banklar orasida raqobatning keskin oshishi natijasida kredit stavkalari bozor qonuniyatlari

asosida pasayishni boshlaydi. Natijada esa hukumat tomonidan imityozli kreditlarni ajratishiga o‘rin qoldirmaydi.

3.2 Tijorat banklari samaradorligini oshirishning yangi yo‘llari

Biz yuqoridagi boblarda tijorat banki samaradorligi tahlilini nazariy hamda amaliy tomonlarini ko‘rib chiqdik. Nazariya jihatdan uning tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqqan bo‘lsak. Amaliy qismida bevosita ular bilan bog‘liq tahlillarni amalga oshirdik. Samaradorlik tahlillari va ular bilan bog‘liq ba‘zi muammolarni keltirib, ularning yechimlarini taqdim qilishga urindik. Endi esa biz tijorat banki faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan yo‘llarni keltirib o‘tishga harakat qilamiz. Bunda ham ba‘zi muammolar asos sifatida keltirib o‘tiladi.

Bank samaradorligi va uning tahlili juda keng qamrovli tushuncha ekanligini yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Shuning uchun bank samaradorligi bank bilan bog‘liq har qanday iqtisodiy va siyosiy munosabatlar hosilasiga bog‘liq hisoblanadi. Bank sohasi bo‘yicha chiqadigan normativ-huquqiy hujjatlar bazasi, informatsion axborot texnologiyalarining joriy qilinishi kabi omillar ham bank faoliyati samardorligiga ta’sir o‘tkazadi.

Biz endi ayni vaqtda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko‘rsatishning erkin bozor mexanizmlari joriy etilayotganligi, xizmat turlarini kengayishi, informatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilayotganligi va boshqa bir qator yutuqlarimizga qaramasdan hali ham bank tizimimizda ikkinchi toifali bir qator muammolar mavjud. Biz ikkinchi toifani o‘zini uch yo‘nalishda ko‘rib chiqamiz:

Birinchi yo‘nalish. Ikkinchi toifali muammolardan eng birinchisi va dolzarbi bu mijozlar bilan bog‘liq munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligidir. Mijozlarning bankka nisbatan ijobiy munosabati kundan kunga so‘nib borayotganligini olsak, banklar faoliyatiga bu salbiy ta’sir qilishi kutiladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Ikkinchi toifali muammolar orasida asosiy o‘rin bu tijorat banklari kreditlari bilan bog‘liq muammolar band etadi.

- tijorat banklari mijozlarga kredit ajratish bo‘yicha qaror qabul qilishda markazlashtirilgan amaliyotning hali ham mavjud ekanligi bankning bosh yuqori va quyi bo‘g‘inlari o‘rtasida ma’suliyat va javobgarliklar bo‘yicha bir qancha tushunmovchiliklar olib kelmoqda;

- kreditga tushgan arizalarning ko‘rib chiqishning tushunarsiz va noqulay mehanizmlari moliyaviy mablag‘ bilan tezkor ta’minlanishga xalaqit qilmoqda. Buning natijasida mijozlar aylanma mablag‘larni o‘z vaqtida to‘ldirish bilan muammolar kelib chiqib, ularning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib tijorat banklariga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda;

- berilayotgan kreditlarni ko‘rib chiqish va ajratish uchun komission to‘lovlarning mavjudligi berilayotgan kreditning real qiymatini oshirib yubormoqda. Bu esa mijozning ushbu kreditlarga nisbatan talabini kamaytirishiga va bu o‘z navbatida bank foydasining kamayishiga olib kelmoqda;

- ma’lumki aholini keng qatlamida mikroqarzga bo‘lgan talab katta. Ammo banklarimiz tomonidan mikroqarzlarni ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzlarni olish darajasini oshirishni ta’minlab bera olmaydi. Mikroqarz beruvchi nobank kredit tashkilotlari bo‘lgan lombard va mikrokredit tashkilotlari mikroqarzlarni bo‘yicha yuqori stavkalarni ustama sifatida belgilashgan. Tijorat banklarining ushbu sharoitda harakatsiz faoliyati mijozlarning ular bilan bog‘liq tushunchalarida salbiylik aks etishi hamda qolaversa kelishi mumkin bo‘lgan aniq daromadlarga ega bo‘lmashliklariga olib keladi.

Uchinchi yo‘nalish. Ikkinchi toifali muammolarning uchinchi shakli bu plastik kartalar bilan bog‘liq:

- inflyatsiyani jilovlash bosh maqsadimiz bo‘lgan bir vaqtda tijorat banklari tomonidan plastik kartalar bo‘yicha mijozlarga yetarlicha imkoniyatlar yaratilmayotganligi va tushunchalar berilmayotganligi hamda bu sohada informatsion texnologiyalarning keng joriy qilinmayotganligi achinarli holatdir;

- xorijiy valyutalar mavjud bank to'lov kartalari bilan bog'liq muammolar mavjudligi. Chet el valyutasi mavjud xalqaro kartalar bilan ishlovchi bankomatlar va xizmat ko'rsatish markazlarining kamligi hamda mamlakatda chet el valyutasi bo'yicha ba'zi bir cheklovlarning mavjudligi mamlakat bank tizimining zamonaviy talablar asosida faoliyat ko'rsatmayotganliklarini anglatadi.

To'rtinchi yo'nalish. Ushbu yo'nalishda quyidagi muammolar mavjud:

- bank xodimlarining etikasi. Ming afsuski bugungi kunda bank xodimlarining aksariyat qismi mijozlar bilan ishlash ko'nikmasida oqsashadi.

- bank xodimlarining moddiy va ma'naviy tomondan yetarlicha qo'llab quvvatlanmasligi. Yuqoridagi muammoning ham tub ildizi aynan mana shu moddiy va ma'naviy rag'batning yetarli emasligi bilan bog'liqdir. Bank xodimi yetarlicha moddiy ta'minlanmas ekan u pora olishga qiziqadi, mijozlar bilan ishlashda hamda o'zining boshqa xizmat majburiyatlarini bajarishda sansalorlikka yo'l qo'yadi. Bu esa bilvosita bank samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni to'g'ri yechimlarini topish banklarga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishi va uning samaradorligini o'sishiga olib keladi. Biz ushbu muammolarning quyidagi yechimlarini tijorat bankning kelgusi rivojlanish yo'nalish sifatida keltirib o'tamiz.

Birinchidan tijorat banklari xodimlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishi lozim. Tijorat banklari xodimlarini moddiy ta'minlashni keskin ko'tarish lozim. Bu orqali biz xodimning bir qancha moliyaviy va ma'naviy muammolarini hal qilib berish orqali uning e'tiborini faqatgina ishga jalb qilishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa xodimning mehnat unumdorligini oshiradi.

Ikkinchidan, moliyaviy muammolardan holi bo'lgan xodimning mijozlar bilan ishlash etikasini qayta shakllantirishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim. Bunda balki ilg'or banklar faoliyati bilan tanishish maqbul bo'ladi. Ularning

muomala madaniyatini o'rganish uchun xodimlarni yuborish yoki ulardan taklif qilib seminarlar tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Navbatdagi uchinchi yo'nalish sifatida biz tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilishni kiritamiz. Axborot kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bank moliya sohasining modernizatsiyasi natijasida bank ham o'z faoliyatini o'zgarishlarga moslashtirishi talab etiladi. Bunda rivojlangan mamlakatlar bank tizimlarini chuqur o'rgangan holda ularda mavjud zamonaviy texnologiyalar va yangi bank mahsulot va xizmatlarini turlarlarini joriy qilgan taqdirdagina bugungi oddiy bank tizimi doirasidan chiqshimiz va rivojlanishimiz mumkin bo'ladi.

To'rtinchi yo'nalish. Jahon iqtisodiyotini pullarning qog'oz shakli emas, balki qolgan zamonaviy shakllari (plastik kartalar, elektron pullar va boshqalar) qamrab olgan bir paytda bizning bank tizimimiz hali ham M2 aggregatini yuqori ushlab turishga harakat qilmoqda. Biz respublikada plastik kartalar amaliyotini keng joriy qilishimiz uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

- savdo shaxobchalarini terminallar bilan ta'minlanishini oshirish;
- naqd pul beruvchi bankomatlarni sonini oshirish, ammo bunda maksimal limitlarni unutmaslik kerak. Bir kishi uchun 200 000 so'm qilib belgilash lozim. Ushbu summadan yuqori belgilash naqd pul hajmini oshirib yuboradi;
- mamlakatda turizmni rivojlantirish va chet el milliy valyutalarini importini ko'paytirish uchun chet el valyutasi bilan ishlay oladigan savdo markazlari va bankomatlar o'rnatish.

Ushbu ishlarni amalga oshirish orqali mamlakatda pul aylanish surati oshadi, bu esa o'z o'rnida iqtisodiyotga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Sinxron ravishda banklarning ham faoliyatida o'sish kuzatiladi. Chet el milliy valyutasini oshishi esa nafaqat bank samaradorligiga balki mamlakat zaxiralarini oshirishga yordam beradi.

Beshinchi yakuniy yoʻnalish bu kreditlar bilan bogʻliq. Kreditlar bu banklarning asosiy daromadi hisoblanadi. Aynan shu sababdan ham yaxshi tasnifli kreditlar hajmini oshirishi uning samaradorligini oshiradi. Buning uchun tijorat banki quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

Kredit uchun hujjat topshirish va uning oʻrganish jarayonini elektron koʻrinishga oʻtkazishi lozim. Chunki bugungi kunda oddiy aholi topshirgan kredit hujjatlari bosh bankda oʻrganilmasdan bir necha oy qolib ketmoqda. Qachon Prezident qabulxonasi yoki ishonch telefoniga murojaat qilgan taqdirda oʻrganilmoqda. Bu esa ularning ish unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. Elektron shaklga oʻtkazish va uni kuzatib borish imkonini berish bu yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda korrupsiya kabi yomon illatlarga ham butunlay barxam beradi.

Bizning fikrimizcha imtiyozli tarzda berilayotgan kreditlarning monitoringiga barham berish kerak. Fuqaro kredit uchun talab qilingan barcha hujjatlarni toʻliq taqdim etganda kafillar har tomonlama shartlarga muvofiq kelganda biz monitoringni toʻxtatib turishimiz lozim. Chunki kredit olgan fuqaro uni kelgusi barqaror moliyaviy holatga ega boʻlish uchun harakat qiladi. Kredit uch yillik boʻlgan holda kafillar mavjud boʻlsa bu kreditning qaytishi yuz foiz holat. Aynan mana shu sababli biz monitoringdan bizro cheklanishimiz lozim. Kredit monitoring oʻrniga kreditni berishdan oldin kuchli monitoring oʻtkazish lozim. Aholi olgan pulidan erkin foydalansin. Shunda iqtisodiyotda yangi korxonalar yangi korporatsiyalar yuzaga kelishi uchun sharoit tugʻiladi. Bu esa oʻz oʻrnida mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy oʻsishni yuzaga keltiradi. Birgina tijorat banklari kreditlari uchun yangi talabgorlarni yuzaga keltiradi.

III bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklari faoliyati samaradorligi bilan bog'liq muammolar, ularning yechimlari va uni oshirishning yangi yo'llari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Tijorat banki faoliyati samaradorligini aniqlash va uni oshirish bilan bog'liq muammolar ikki toifaga ajratiladi. Birinchi toifa bu bankning samaradorligini aniqlash va unga bevosita ta'sir qiluvchi muammolar. Ikkinchi toifa esa bu bilvosita ta'sir qiluvchi muammolar.

2. Tijorat bankining samaradorligini aniqlashda eng asosiy muammo bu ba'zi omillarning hisobga olinmasligidir. Omillarning to'g'ri hisoblanmasligi bank samaradorligini aniqlash va uni tahlil qilishda chalkashliklar yuzaga keltiradi.

3. Samaradorlik bilan bog'liq ikkinchi toifa muammolarning o'zi ham bir nechta guruhlariga bo'linadi. Ammo ularning birlashtiruvchi yagona xususiyat bu bankning samaradorligiga bilvosita ta'sir etuvchi muammolardir.

4. Tijorat banklarining samaradorligini tahlilini to'g'ri olib borish orqali biz uni kelgusi faoliyat yo'nalishini belgilab olishimiz mumkin. Shuning uchun ham yuqorida nazarda tutilgan omillarni hisobga olish lozim.

5. Ikkinchi toifa muammolarni bartaraf etish orqali biz nafaqat bank tizimi balki iqtisodiyotda yalpi o'zgarish va o'sishlarni yuzaga chiqarishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda, bazi davlatlarda iqtisodiy inqiroz ta'sir sezilib turgan vaqtda bank samaradorligini o'lchash va uni baholash bank sektori uning faoliyatida asosiy dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro moliya bozorlarini globalizatsiyasi va bank sektorida raqobatni oshishi moliya institutlarining samaradorligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Samaradorlik tahlili garchi XIX -XX asrga qadar kam olib borilgan bo'lsada, ayni vaqtda bu tadqiqotchilar qiziqishining markazida turibdi. Tijorat banklarining samaradorligini hisoblash bankning kelgusi faoliyat yo'nalishini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarbliligi ham mana shu jihati bilan belgili beriladi.

Samaradorlik ko'pincha unumdorlik bilan aniqlanadi. Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" nomli mashxur kitobida mehnat ishchi malakasi va unumdorlikda eng katta rivojlanishlarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Smit fikricha ish unumdorligini oshishi bu ish vaqtini tejash va bir kishi qiladigan mehnatni qisqartiruvchi hamda unga imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi ko'plab mehanizmlar kashf qilinishiga erishishdir.

Tijorat banklar faoliyatini samaradorligini oshirishda ko'rsatkichlar darajasiga katta e'tibor berish lozim. Bank faoliyatini mijozlar bazasini kengaytirish uchun ananaviy moliyaviy ko'rsatkichlar tizimidan keng tarzda foydalanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi. Xalqaro amaliyotda ROA va ROE ko'rsatkichlar tizimi bu bankning samaradorligini baholashda muhim deb e'tirof etiladi. Ammo ko'pchilik fikriga ko'ra aktivlar qaytimi bankning haqiqiy samaradorligi yoki "performance"ni ochib berishda eng yaxshi ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi.

Turli mamlakatlar o'zlarining mavjud bank tizimini baholab borish uchun o'zlarining maxsus baholash sistemalarini ishlab chiqqan. Jumladan AQSH CAMELS tizimi bank faoliyatini to'g'ri va to'liq yoritib beruvchi baholash tizimi

hisoblanadi. Shu sababdan ham CAMELS nafaqat bir mamlakat bank tizimida balki xalqaro amaliyotda ham keng qo'llaniladi.

Ushbu yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki mamlakatimizda asosiy samarali faoliyat olib borayotgan banklar bu xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarda yuqori samaradorlik ko'rsatkichga ega. Davlat banklari qolgan mulkchilik shakllaridagi banklarga nisbatan eng samarasiz faoliyat olib borishadi. Ularning faoliyati boshqa banklarga nisbatan bir necha barobarga samarasiz.

Tahlillardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki bank tizimida xususiy, chet el kapitali va aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aktivlari eng yuqori bo'lgan davlat banklarida esa jiddiy islohotlar o'tkazishimiz lozim.

Garchi davlat ulushi mavjud bo'lsada, aksionerlik tijorat banklari barqaror o'sish tendensiyasiga egadir. Fikrimizcha aksionerlik tijorat banklarining ulushidan davlat ulushlarini olib tashlash kerak. Shunda biz bank tizimida keskin raqobat muhitini yaratishimiz mumkin.

Bundan tashqari tijorat banklari aktivlar samaradorligini oshirishga harakat qilishlari lozim. Chunki aktivlar bank foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatib samaradorlikni oshirishi yoki uni pasaytirishi mumkin.

Biz tijorat banklari umumiy solishtirma tahlillarni likvidlilik bo'yicha olib borganda asosiy e'tibor qaratishimi kerak bo'lgan narsa bu likvidlilikning xususiyatlaridir. Fikrimizcha asosiy xususiyat bu -tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o'rtasidagi doimiy sub'ektiv mutanosiblikni saqlashdan iborat ekanligidir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mablag'lardir. Bu mutanosiblik esa, yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banki faoliyati samaradorligini aniqlash va uni oshirish bilan bog'liq muammolar ikki toifaga ajratiladi. Birinchi toifa bu bankning samaradorligini aniqlash va unga bevosita ta'sir qiluvchi muammolar. Ikkinchi toifa esa bu bilvosita ta'sir qiluvchi muammolar. Tijorat bankining samaradorligini aniqlashda eng asosiy muammo bu ba'zi omillarning hisobga olinmasligidir. Omillarning to'g'ri hisoblanmasligi bank samaradorligini aniqlash va uni tahlil qilishda chalkashliklar yuzaga keltiradi.

Omillardan biri bu bank boshqaruvi bilan bog'liqdir. Yuqori malakali menejerlar tomonidan ko'proq kapitalga egalik qilinishi faoliyatni ko'proq rag'batlantiradi, chunki bu holat monetar rag'bat sifatida ishlaganligi sababli bank samaradorligini kuchaytiradi. Fikrimizcha katta aksiyadorlik kapitali ulushi egasi bo'lgan rahbarlarni juda boy va kuchli ekanliklari bank faoliyatiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular yetarlicha boy bo'lganliklari sababli foydani maksimallashtirishga qiziqmaydilar va bu bilan firmaning moliyaviy ko'rsatkichini pasaytiradi. Ammo, bizning fikrimizcha menejerlarning haddan tashqari ko'p aksiyalarga ega bo'lishi moliyaviy samaradorlikni tushirishi mumkin, chunki haddan tashqari katta ulushga ega menejerlar ko'p kuch va vakolatlarga ega bo'lishadi bu esa ularning boshqa aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olmay qo'yishlariga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytilganidek ular foydani maksimallashtirishga intilmasliklari mumkin, ammo, bozor ulushlarini oshirishni va texnologik rahbarlikni kengaytirishni maqsad qilishadi. Ko'plab aksiyadorlari mavjud bo'lgan banklar samaradorlikni oshiradigan bank boshqaruv nazorati va monitoringni yaxshi tashkil etgan bo'ladi.

Bank samaradorligi bank bilan bog'liq har qanday iqtisodiy va siyosiy munosabatlar hosilasiga bog'liq hisoblanadi. Bank sohasi bo'yicha chiqadigan normativ-huquqiy hujjatlar bazasi, informatsion axborot texnologiyalarining joriy qilinishi kabi omillar ham bank faoliyati samardorligiga ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham banklar o'z faoliyatlarini samaradorligini oshirish uchun eng avvalo infratuzilmaga katta e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

Tijorat bankini samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni shakllantirildi.

Birinchidan tijorat banklari xodimlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishi lozim. Tijorat banklari xodimlarini moddiy ta'minlashni keskin ko'tarish lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy muammolardan holi bo'lgan xodimning mijozlar bilan ishlash etikasini qayta shakllantirishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim. Bunda ilg'or banklar faoliyati bilan tanishish maqbul bo'ladi.

Navbatdagi uchinchi yo'nalish sifatida biz tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilishni kiritamiz.

To'rtinchi yo'nalish. Biz respublikada plastik kartalar amaliyotini keng joriy qilishimiz uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

- savdo shahobchalarini terminallar bilan ta'minlanishini oshirish;
- naqd pul beruvchi bankomatlarni sonini oshirish, ammo bunda maksimal limitlarni unutmash kerak. Bir kishi uchun 200 000 so'm qilib belgilash lozim. Ushbu summadan yuqori belgilash naqd pul hajmini oshirib yuboradi;
- mamlakatda turizmni rivojlantirish va chet el milliy valyutalarini importini ko'paytirish uchun chet el valyutasi bilan ishlay oladigan savdo markazlari va bankomatlar o'rnatish.

Beshinchi yakuniy yo'nalish bu kreditlar bilan bog'liq. Kreditlar bu banklarning asosiy daromadi hisoblanadi. Kredit uchun hujjat topshirish va uning o'rganish jarayonini elektron ko'rinishga o'tkazish lozim. Elektron shaklga o'tkazish va uni kuzatib borish imkonini berish bu yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda korrupsiya kabi yomon illatlarga ham butunlay barxam beradi.

Fikrimizcha rivojlanib borayotgan bank moliya sohasida tijorat banklarining samaradorligini tahlilini takomillashtirish va uni oshirishda ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tahlillar orqali shakllantirilgan xulosalarni inobatga olish va takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.SHarq, 2003 yil.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni 1995 yil 21 dekabr.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996 yil 25 aprel.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 martdagi «O'zbekiston Respublikasining «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi PF-4522-sonli Farmoni
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5296-sonli Farmoni
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-56 sonli Qarori.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-1166-sonli Qarori
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning

ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi. PQ-1438-sonli Qarori. “Xalq soʻzi” gazetasi. 2010 y.27 noyabr

1.10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2016 y., 25-son, 70-modda

1.11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3270-sonli Qarori

1.12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3272-sonli Qarori

1.13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3620-sonli Qarori

1.14. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004 yil 30 yanvardagi «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash toʻgʻrisida»gi 1306–sonli Nizom,.

1.15. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi» № 773–17–son 2004 yil 13 avgust.

1.16. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2008 yil 11 iyuldagi «Oʻzbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi toʻgʻrisida»gi 1834–son yoʻriqnoma.

1.17. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2015 yil 13 iyundagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi 2696-sonli Nizomi.

1.18. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 6 iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qoʻyiladigan talablar

to'g'risida"gi 2693 – sonli Qarori.

1.19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 avgustdagi "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2709-sonli Nizomi.

1.20. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".- Toshkent: 2016.-56b.

1.21. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".- Toshkent: "O'zbekiston". 2017.-104b.

1.22. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". – Toshkent: "O'zbekiston". 2017. – 48b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. AT "Xalqbank" yillik hisobot ma'lumotlari

2.2. XATB "Orient Finans Bank" yillik hisobot ma'lumotlari

2.3. AT "Aloqabank" yillik hisobot ma'lumotlari

2.4. Chet el kapitali ishtirokidagi ATB "Hamkorbank" yillik hisobot ma'lumotlari

2.5. Boboev B. Bank resurslaridan foydalanishni maqbullashtirish. //Bozor,pul va kredit. № 2, 2001.

2.6. E. Kohlscheen, A. Murcia and J. Contreras (Bank for international settlements) Determinants of bank profitability in emerging markets. POLICY RESEARCH WORKING PAPER

2.7. Iveta Repkova "Efficiency of Czech banking sector employing the DEA window analysis approach". Science direct jurnali. 2014

2.8. Karimov N.F. Risklar va tijorat banklarining foydani shakllantirish muammolari. i.f.n. diss. –T.: 1998. –b. 24

2.9. Kozlov A.A. Voprosy realizatsii Bazelskix rekomendatsii v oblasti bankovskogo nadzora v Rossii. //Dengi i Kredit, №6 -2006.

2.10. Matkarimov M. Tijorat banki resurs bazasini shakllantirish. //Bozor, pul va kredit. №1.2005.

2.11. Mahmudalieva Y.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2001. – 22 b.

2.12. Omonov A. Bank kapitali yetarliligini ta'minlashda xatarli bank aktivlari ahamiyati. //Bozor, Pul va Kredit. №6 2004. – 14-15 b.

2.13. Omonov A. Bank kapitali yetarliligiga qo'yilgan talablar. // Bozor, Pul va Kredit. №3 2004. – 14 - 15 b.

2.14. Pavel Ziaran, Renata Kuceroval "The leadership triangle, suggestion for a new theory-an experimental approach". Science direct iqtisod va moliya jurnali. 2014 y

2.15. Симановский А.Ю. Достаточность банковского капитала: новые подходы и перспективы их реализации. // Деньги и Кредит, №6, 2000. – С. 20-23.

2.16. Rogovski G. "The methods of analysis bank profitability", Bank and Credit. №11. 2014

2.17. Qoraliev SH. Tijorat banklari kapitaliy etarliligini ta'minlash. // Bozor, Pul va Kredit. №2. 2003. – 13-14 b.

2.18. Umarov Z.A. Tijorat banklari moliyaviy tahlilning ayrim yo'nalishlari. // Развитие розничного банковского бизнеса mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. –B. 315–316.

2.19. Umarov Z.A. Tijorat banklari moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining nazariy-uslubiy masalalari Monogrofiya T. "Moliya-iqtisod" 2015 y

2.20. World Bank Group "Financial structure and Bank profitability". 2009 2430

2.21. Zuzana Svitalkova "Comparison and evaluation of bank efficiency in selected countries in EU". Science Direct jurnali. 2014

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

- 3.1. Abdullaev Y., Qoraliev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD – MOLIYA ", 2009 y. – 548 bet.
- 3.2. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. –T.: Moliya, 2002. –304
- 3.3. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" T.TMI., 2005 y.
- 3.4. Adam Smith "An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations". 1776 y. University of Chicago,
- 3.5. Банк В.Р. Организация и бухгалтерский учет банковских операций: Учеб. пос. - М.: 2004. - 231 с
- 3.6. Банковское дело: Учебник / под ред. В.И. Колесникова, П.П. Кроливедской. 4-е издание – М.: Финансы и статистика, 1998. –464 с.
- 3.7. Банковское дело: Учебник. перераб. и доп./ Под ред. О.И. Лаврушина. –М.: КНОРУС, 2008. – 768 с.
- 3.8. Банковское дело: Учебник/ под. ред. д.э.н. проф. Г.Г. Коробовой. – М.: Экономистъ, 2004. – 751 с.
- 3.9. "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 576 с.
- 3.10. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: Учебник для вузов. –изд. 2-е перераб. и доп. –М.: Университетская книга; Логос, 2007. –368 с.
- 3.11. Бор М.З., Пятненко В.В. Стратегическое управление банковской деятельностью. - М. : Финансы и статистика, 1995. -158 С.
- 3.12. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. - T.: O'zbekiston, 2011. - 296s.
- 3.13. Pardayev M.K Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Sam.; Zarafshon, 2008 y.
- 3.14. Stepień. Polsha banklarida samaradorlik va konsolidatsiya. Varshava. 128-136 bet.

3.15. Тютюнин А.В., Турбанов А.В. “Банковское дело”– М.Ф. и С. - 2005 г. Черкаев В.Е. “Финансовый анализ в коммерческом банке”, М. Инфра-М. 1995 г.

3.16. Qoraliev T. va boshqalar Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD – MOLIYA”, 2016 y.

4. Internet saytlari

- www.cbu.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
- www.gov.uz-(O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali)
- www.frbsf.org -San-Fransisko federal rezerv bankirasmii sayti
- www.worldbank.org jahon banki rasmiy vebsayti
- www.imf.org xalqaro valyuta fondi
- www.stat.uz-(O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi)
- www.lex.uz-(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
- www.xb.uz Aksionerlik tijorat Xalq banki rasmiy sayti
- www.hamkorbank.uz chet el kapitali ishtirokidagi aksionerlik tijorat “Hamkorbank” rasmiy sayti
- www.aloqabank.uz aksionerlik tijorat “Hamkorbank” rasmiy sayti
- www.ofb.uz xususiy aksionerlik tijorat “Orient Finans Bank” rasmiy sayti
- www.bis.org – (Bazel qo‘mitasi sayti)
- www.sciencedirect.com - (ScienceDirect xalqaro ma’lumotlar bazasi)
- www.scopus.com - (Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasi)

ILOVALAR

1-ILOVA

CAMELS reyting tizimida banklarning foydalilik darajasini baholash

Reyting	Aktivlar sifati asosiy ko'rsatkichining darajasi, %
1- kuchli	Aktivlardan foydalanish samaradorligi ko'effitsenti 1,0 foizdan yuqori; bank kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplash uchun yetarli darajada zaxiralarga ega; foyda qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarga va noordinar daromadlarga bog'liq emas.
2-qoniqarli	Foydalilik ko'effitsenti 0,75 dan 1,0 foizgacha oraliqda tebranadi; daromad o'zgarmas va kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplash uchun yetarli.
3-o'rta	Foydalilik ko'effitsenti 0,50 dan 0,75 foizgacha oraliqda tebranadi; ko'effitsentning salbiy trendi shakllangan; dividendlar bo'yicha stavka yuqori;
4-chegaraviy	Foydalilik ko'effitsenti 0,25 dan 0,5 foizgacha oraliqda tebranadi; daromadning tebranishi kutilmagan ko'rinishga ega bo'ladi; ko'effitsent trendi salbiy; ssudalar bo'yicha zararlarni koplashga mo'ljallangan zaxira yetarli emas; foyda kapitalni oshirish uchun yetarli emas.
5- qoniqarsiz	Faoliyat sof zarar bilan yakunlangan yoki foyda miqdori juda kam. Foydalilik ko'effitsenti 0,25 % dan past. Mavjud holat bankning hayotiyeligiga xavf soladi.

2-ILOVA

CAMELS reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining risk darajasi.

Banklarning balans aktivlari	Risk darajasi, %
Kassadagi naqd pullar	0
Yo'ldagi pullar	20
Hukumatga yoki Markaziy banka bo'lgan talablar	20
Pul mablaglari bilan yoki Hukumatning qimmatli qog'ozlari yoki Hukumatning kafolatlari bilan ta'minlangan talablar	20
Maxalliy jamoat tashkilotlariga bo'lgan talablar va ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan ssudalar	20
Xalqaro taraqqiyot bankiga bo'lgan talablar va ushbu banklar kafolatlagan yoki ularning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan talablar	20
Xususiy sektorga bo'lgan talablar	100
Ipoteka kreditlari	50
Ijtimoiy tijorat kompaniyalariga bo'lgan talablar	100
Bino, inshootlar va boshqa asosiy vositalar	100
Qo'zg'almas mulk va boshqa investitsiyalar	100
Boshqa banklarning qarz majburiyatlari	100
Boshqa aktivlar	100
Balansdan tashqari aktivlar	
Qarzdorlik bo'yicha umumiy kafolatlar va kafolat ko'rinishidagi moliyaviy instrumentlar	100
Bank akseptlari va rezerv akkreditivlar	100
Aktivlarni regress xuquqi bilan sotish va sotib olish	100
Muddatli majburiyatlar	100
Bitimlar bilan bog'lik bo'lgan ko'zda tutilmagan qo'shimcha	

majburiyatlar (masalan, talabga ko'ra qoplanadigan akkreditivlar, konkret bitim bo'yicha kafolatlar va rezerv akkreditivlar)	50
1 yildan ortiq muddatga ega bo'lgan foydalanilmagan majburiyatlar	50
Joylashtirish kafolatlarini tiklash uchun mablag'lar	50
1 yil va undan kam muddatga ega bulgan foydalanilmagan majburiyatlar	0